

«Bola tarbiyasini sharq xalqlaridan o'rganish kerak», degan edi g'arb pedagoglaridan biri, zero sharq xalqlarida oilaga, bola tarbiyasiga qadim-qadimdan katta ahamiyat berib kelinadi. Sharqning qadimiy xalqlaridan bo'lmish hindlar adabiyotida „Mahabharata“, „Ramayana“, „Pan-chatantra“, „Hito'padesha“ kabi asarlar mavjudki, ularda yiiqorida aylib o'lilgan mavzular to'liq yoritiladi.

„Hito'padesha“ asari X—XIV asrlar mobaynida yaratilgan bo'lib, u maqol, matal, hikmatli so'zlarga boy, uning mazmuni hikoyat ichida hikoyat shaklida tuzilgan. Kitobda bayon qilingan voqealar parrandalar va hayvonlar tilidan so'zlanadi. Asarda ezgulik, soflik, ota-onalar hurmati, ilm-ma'rifatga intilish, rostgo'ylik, adolat va jasurlik kabi fazilatlar madh etiladi, xiyonat, ig'vo, razolat qoralanadi.

Keng kitobxonlar ommasiga mo'ljallangan mazkur asarni o'rta maktablarda o'qitiladigan „Odobnoma“ darslarida qo'shimcha adabiyot sifatida ham tavsiya etish mumkin.

Taqrizchi: dotsent U.Muhibova

4703020000-74

353(04)-2008

ISHN 978-9943-02-176-1

„O'qituvchi“ NMIU, 2008

The book is published with assistance of The Embassy of the Republic of India in Tashkent
Kitob Hindiston Respublikasining Toshkentdagi elchixonasi yordamida nashr etildi



SO'ZBOSHI

Hind adabiyoti, xususan, qadimgi hind adabiyoti jahon adabiyotiga o'zining durdona asarlari bilan munosib hissa qo'shgan: „Mahabharata“, „Ramayana“, „Panchatantra“, „Hito'padesha“ kabi asarlar shular jumlasidandir.

„Hito'padesha“ 10-14- asrlar mobaynida Bangal viloyatida yaratilgan. Hind adabiy an'anasiga ko'ra, Narayan Pandit mazkur asarning muallifi hisoblanadi. Asar qadimgi hind tili — sanskritda yozilgan.

„Hito'padesha“ tuzilishi jihatidan „Panchatantra“ga o'xshaydi. Bir qator mavzular „Panchatantra“ va boshqa manbalardan olingan. „Panchatantra“dan olingan sujetlar qayta ishlangan. „Hito'padesha“ning tili „Panchatantra“ga qaraganda sodda va ravon, maqol, matal va hikmatli so'zlarga juda boyligi bilan ajralib turadi. Shu sabablarga ko'ra asar nihoyatda maroq bilan o'qiladi.

„Hito'padesha“ni dunyoga mashhur qilgan narsa sujetining hikoyat ichida hikoyat shaklida tuzilgani, voqealarning deyarli hammasi parranda va hayvonlar tilidan so'zlanishi va hikmatlardir. Ushbu asar o'z tabiatiga ko'ra didaktik asarlar jumlasiga kiradi. Har bir hikoyat ezgulik, yaxshilikka undaydi, to'g'ri yo'lga boshlaydi. Zo'r tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan mazkur asarni hindlar „ilm-hikmat xazinasi“, deb bejiz aytmaydi. „Hito'padesha“ ko'plab g'arb va sharq tillariga, jumladan, rus tiliga ham tarjima qilingan. XX asrning o'zida asar rus tilida uch marta uch xil taijimada nashr etilgani bu asarga bo'lgan qiziqishning naqadar yuqoriligini ko'rsatadi. „Hito'padesha“ o'zbek tiliga hindiy tilidan ayrim qisqartirishlar bilan taijima qilindi.

Qariyb 1000 yil awal yaratilgan bu asarda ota-onaga hurmat, ilm-ma'rifatga intilish, rostgo'ylik, jasurlik, do'stga sadoqat, xushxulqlilik, vatanga muhabbat kabi fazilatlar ilgari suriladi. Va aksincha, xiyonat, ig'vogarlik, razolat kabi nuqsonlar fosh etiladi.

Bu asar yoshlar tarbiyasida, ularni ilm-ma'rifatga undashda ham muhim ahamiyatga ega. „Hito'padesha“ yosh-u qari hamma birdek qiziqib o'qiydigan foydali asardir.

Ansoriddin Ibrohimov

Birinchii qism



Ganga daryosining sohilida joylashgan Pataliputra shahri tarixda muhim o'rin egallaydi. Bu shaharning hozirgi nomi Patna. Qadimda Pataliputra ulkan Magadha davlatining poytaxti bo'lgan. O'sha paytlarda u yerda Sudarshan degan raja hukmronlik qilardi.

Raja Sudarshan ko'p narsaga aqli yetadigan, dovyurak bir inson bo'lib, uning saroyida mamlakatdagi manaman degan, eng sara olim-u fuzalolar xizmat qilardi. Ularning hol-ahvolidan shaxsan rajaning o'zi xabar olib turar, shu bahona olimlar bilan suhbat qurib, ularning ilm-hikmatidan bahramand bo'lardi.

Shunday bir suhbat chog'ida bir olim raja Sudarshanga qarab bunday dedi:

— Muhtaram raja, men sizga ikkita narsa aytmoqchinian. Birinchisi shuki, din-mazhab, siyosat, jamiyat va tarixdagi muamino-jumboqlarni faqat aql ko'zi bilangina ko'rish mumkindir. Ilm shunday bir nurki, u dunyodagi liar qanday zulmatni yorita oladi. Aql nuri oldida inson ko'zining

nuri o'jizlik qiladi. Buning ma'nosi shuki, ko'rinmagan narsani ko'rsatadigan ilm-hikmat ko'zi nihoyatda qudratlidir. Kimda aql ko'zi bo'lmas ekan, unday kishi garchi ko'rar ko'zi bo'lsa ham, aslida so'qirdan farqi yo'qdir.

Sizga aytmoqchi bo'lgan ikkinchi gapim shuki, agar ba'zi kimsalarga yoshlik, mol-davlat, toj-taxt, buyuklik kabi narsalardan birontasi nasib etib qolsa, unday odam hovliqib qoladi. Bu hovliqmalik uning ko'ziga parda tortib qo'yadi. Natijada u odam katta gunohlarga qo'l urib qo'yishi ham hech gap emas. Lekin deylik, o'sha odamga shu narsalarning hammasi birvarakayiga nasib qilib qolsa-chi? Unda u odamning holi nhna kechadi?

Bular kishini o'ylantiradigan gaplar edi. Raja Sudarshan donishmandning gaplarini eshitdi-yu, bir g'amiga ming g'am qo'shildi. U o'g'illari tufayli qattiq iztirob chekardi. Rajaning o'g'illari, ya'ni Magadha davlatining shahzodalari ilm-hikmatdan kundan kunga yiroqlashib ketmoqda edilar. Raja Sudarshan buni juda yaxshi bilar va shuning uchun ham qattiq azob chekardi. O'g'illari olim-panditlarning suhbat-majlislarini tark etishgan, nopok fikrli kishilarga qo'shilib, ilm ummonidan yiroqlashmoqda edilar. Raja Sudarshanda shahzodalarga meros qoldiradigan mol- dunyo degani shunchalik behisob ediki, yetti pushti yotib yesa hamyetib ortardi. Lekin mol-davlatga ega bo'lgan bilan kishi ulur bo'lib qolmaganidek, ilimsiz kishini ham komil inson dob bo'linayidi. Raja degani fuqaro haqida qayg'urishi, mamlakalni boshqarishdek qiyin vazifani uddalashi kerak. Lekin shunday ulkan mas'uliyatli ishlarni amalga oshiradigan rajaning o'zi ilmsiz bo'lsa-chi? Unda nima bo'ladi? Uning qo'li ostidagi davlatning holi nima kechadi?

Bir-biridan tashvishii shunday o'y-xayollar raja Sudarshshaning ich-etini kemirardi. Kecha-yu kunduz uning boshi shunday xayolar bilan band edi. O'qish-yozishga tob-toqati yo'q, din-mazhab masalalarini o'ylashni xayoliga ham keltirmaydigan farzanddan ne foyda? Bunday farzand so'qir ko'z singari jonga azob berishdan bo'lak narsaga yaramaydi. Bunday bolaning boridan yo'g'i afzal.

Turmushda farzand bilan bog'liq uch narsaga duch kelish mumkin — birov befarzand bo'ladi, birov farzand ko'rib, undan bot ayriladi, boshqa birovning esa farzandi nobop chiqadi. Bulardan ikkitasiga chidasa bo'ladi, ya'ni befarzandlik va farzand dog'iga inson bir amallab bardosh berishi mumkin. Lekin farzand noqobil chiqsa-chi, unda nima qilish kerak? Aql-hikmatdan yiroq, o'qish yozishni xushlamagan bunday farzand ota-onasiga ko'p aziyat yetkazadi. Bunday bolaning turgan-bitgani tashvish. Sho'rlik ota-ona farzandini ko'rgan sari ich-ichidan zil ketib, kuyaveradi. Mana shu kuyish ularni bedavo dardlarga muhtalo qiladi. Xullas, bunday farzand boshga bitgan balo bo'ladi.

Agar farzand xushsurat va kelishgan bo'lib yetishsa-yu, lekin aql-hushi bo'lmasa, bunday farzandning ona qornidayoq nobud bo'lib qo'ya qolgani yoki dunyoga kelgan taqdirda ham, o'sha zahoti o'lgani yaxshiroqdir. Aql-farosatsiz o'g'ildan yettita qiz ko'rgan afzaldir. Bunday o'g'ilga ona bo'lgandan ko'ra, befarzand o'tgan ma'qul. Yaxshi farzand ota-onaga baxt-saodat keltiradi, yomon farzand esa g'am-alam. Shuning uchun ham farzandidan kuygan ota-ona ba'zan: „Shundan ko'ra tug'ilgan zamoning o'lib qo'ya qolsang bo'lmasmidi, o'shanda kamroq kuyardim“, deydi.

Halol mehnatdan bo'yin tovlaydigan, muhtojlarning kuniga yaramaydigan, qashshoq-kambag'al va beva-bechoralarga yordam qo'lini cho'zmaydigan, og'irkunda birovning joniga oro kirmaydigan farzand, farzand emas, ota-onaning badaniga chiqqan chip qondir.

Ota-onasi va ustozining xizmatida bo'lgan, muqaddas joylarda yashagan va bunday joylarni ziyorat qilib turgan kishilarning, turmushi hamisha xursandchilik va osoyishtalik bilan kechadi. Farzandi baxt-saodatli va es-hushli bo'lgan ota-ona dunyodagi jamiki

hursandchiliklardan bahramand bo'ladi, boshiga hech qachon g'am soyasi tushmaydi. Bitta aqli raso qiz yuzta ahmoq o'g'ildan yaxshiroqdir. Shuning uchun donishmandlar aytganki, kundalik rizq-ro'zi bor, tan-joni sog', jonini ham fido qilishga tayyor, muhabbat farishtasi bo'lmish xotini, ota-ona xizmatini qiladigan, ular izmidan chiqmay xushnud qiladigan itoatkor o'g'li bor, din, ilm-hikmat va insoniylikni targ'ib qiluvchi bilimga ega bo'lgan odam baxtlidir.

O'g'il ko'rgan qaysi ota-ona suyunmaydi, deysiz. Biroq bu dastlabki sevinchdir, haqiqiy xursandchilik o'g'ilning qanday odam bo'lib yetishishiga, uning qobil-noqobilligiga bog'liq bo'ladi. O'nta noqobil va ahmoq o'g'il poxol to'la ombordan farq qilmaydi. Bunaqa o'nta o'g'ildan nasl-nasabiga dog' tushirmaydigan bitta o'g'il ming marta afzaldir.

Odamlardan qarz olib, oilasini og'ir ahvolga solib qo'yadigan ota — oilaning dushmanidir.

Kayf-safoga mukkasidan ketgan ota-ona esa farzandlarining dushmanidir.

O'zining husn-jamoliga mahliyo bo'lib yuradigan ona — oilaning boshiga bitgan balodir.

Xuddi shuningdek, nobop va aqlsiz o'g'il ham ota-onasining dushmanidir. Bunday farzand yorug' dunyoni ko'rmay qo'ya qolgani ma'qul. Nasl-nasabi uchun xayrli ishlar qiladigan farzandning ota-onasi haqiqiy baxtlidir. O'zining nasl-nasabi va odamlarning farovonligi uchun qo'lini sovuq suvga ham urmaydigan odamlar yashadi nima-yu, yashamadi nima — hech farqi yo'q. Odamni odamdan ajratib turadigan narsa uning toifasi emas, balki yaxshi xislatlari va aqlidir. Bambukning qadr-qimmati faqat uning mahkamligida emas. Uning boshqa xususiyatlari ham bor. Masalan, bir bo'lak bambukka chizimcha tortib kamon yasasa, undan o'q uzsa bo'ladi. Shu ma'noda kalta bambuk uzun bambukdan foydaliroqdir.

O'g'illari haqidagi fikr-u xayollar raja Sudarshanni tinch qo'ymas, nima qilsam, o'g'illarim es-hushli bo'larkin, deb erta-yu kech o'ylagani-o'ylagan edi. Agar odamda aql degan narsa bo'lmasa, shahzoda bo'lmay tugul kim bo'lishidan qat'i nazar, hayvondan farqi bo'lmaydi. Aqlsiz odam qanday qilib davlat ishlarini boshqaradi, el-yurtning og'irini yengil qiladi, mamlakatni dushmandan mudofaa qiladi? Bu kabi xayollar rajaga qattiq azob berardi.

Inson uchun quyidagi beshta narsa onaning qornidayoq tayin bo'ladi: tug'ilish, o'lish, qismat, badavlat bo'lish-bo'lmislik va ilm.

Odam qanchalik yuqori mansabda bo'lmasin, u taqdirdan qochib qutula olmaydi. Tangri Shivajiyning doimo yalang'och yurishi, tangri Vishnuning ilon ustida yotib uxlashi xuddi mana shu taqdirning o'yinlarini ko'rsatadi.

Ba'zi odamlar: „O'zi aslida bo'lmaydigan narsa hech qachon bo'lmaydi va taqdirdan qochib qutulishning iloji yo'q. Axir bu shundoqqina ayon bo'lib turgan haqiqat-ku. Shu haqiqat ilmini egallab olib, behuda tashvishlardan qutulib qo'ya qolmaysanmi“, deyдилar. Bu gaplar jonini koyitishni istamaydigan, bema'ni va dangasa odamlarning safatasidir, xolos.

To'g'ri, inson hayotidagi ko'p narsalarni taqdir belgilaydi. Biroq arava bitta g'ildirakda yura olmaganidek, g'ayrat-shijoat qilmay turib, taqdir belgilagan maqsadga ham yetishib bo'lmaydi. Taqdir nima o'zi? Taqdir — insonning oldingi tug'ilishlaridagi qilmish-qidirmishlarining mevasidir. Bas, shunday ekan, inson dangasalikdan voz kechib, g'ayrat kamarini mahkam bog'lab, yeng shimarib ishga kirishmog'i lozimdir.

Bo'ladigan narsa bo'lmay qolmaydi, taqdirdan qochib qutulib bo'lmaydi, degan xayol bilan o'tiravermaslik kerak. Axir harakat qilmasa, kunjutdan yog' ham olib bo'lmaydi-ku!

Mol-davlat hamisha g'ayratli, mehnatsevar, aql-zakovatli va jasur kishilarga muyassar bo'ladi. Binobarin, taqdir-peshana degan gaplarni ko'ngildan chiqarib tashlab, g'ayrat va qat'iyat bilan ishga kirishmoq kerak. Shunda taqdirning o'zi ham odamni qo'llab- quvvatlaydi va u albatta

muvaffaqiyatga erishadi. Bordi-yu ter to'kib mehnat qilganingga qaramay muvaffaqiyat yor bo'lmasa, unda bilginki, yo biron-bir narsada yanglishgansan yoki yetarli mehnat qilmagansan. Kulol bir parcha loyni istagan shaklga kiritadi, xuddi shuningdek, inson ham qilmishi va mehnati bilan o'z taqdirini o'zgartira oladi. Hatto yerda yotgan pulni olish uchun ham ozgina jon kuyitish kerak — belni bukmay turib o'shani ham qo'lga kirilib bo'lmaydi.

Shirin-shirin orzu qilgan va havoyi qasrlar qurgan bilan hech bir narsa o'zgarib qolmaydi. Maqsadga erishmoq uchun faqatgina g'ayrat qilmoq darkordir. Axir qaysi kiyik mudrab yotgan sherga o'z oyog'i bilan kelib o'lja bo'ladi!

Farzandiga bilim bermagan, o'qitmagan ota-ona farzandining dushmani bo'ladi. Oqushlarning orasida turna ajralib turganidek, bilimsiz odamlar ham majlis-suhbatlarda boshqalardan yaqqol ajralib turadi, atrofdagilar bundaylarga tahqir ko'zi bilan qaraydilar. Balog'at yoshiga yetganda inson qanchalik chiroyli, kelishgan bo'lmasin agar ilmsiz bo'lsa, hidsiz guldan hech ham farq qilmaydi.

Kaja Sudarshan o'g'illari haqidagi bu gaplarni chuqur o'ylab, har tomonlama mulohaza qilib ko'rdi. Nihoyat bir kuni mamlakati va saroyidagi jamiki olim-u fozillarni huzuriga chorladi. Ularning oldiga o'zining g'am-tashvish kitobini ocha turib, bunday dedi:

— Muhlaram va aziz olim-u fozillar, hurmatli donishmandlar. Men haq yo'ldan toyib ketayotgan o'g'illarim tufayli boshim juda qotib qoldi, qattiq iztirobdaman. Sizlarni bu yerga to'plashdan niaqsadim sizlar bilan maslahatlashishdir. Men o'zlaringiz bergan ilm vositasida shunday fikrga keldim. Axir o'zlaringiz aytgan edingiz-ku, og'ir vaqtda boshqa bir donishmandning ko'magiga tayangan, u bilan maslahat qilgan odamgina haqiqiy donishmanddir, deb. Xo'sh, endi aytinglar-chi, qandoq qilib o'g'illarimni to'g'ri yolga solsa bo'ladi?

Raja so'zini tugatgach, olimlarning ichidan Vishnu Sharma degan bir ulug' olim-pandit, faylasuf va donishmand o'rnidan turdi-da, raja Sudarshanga qarab murojaat qildi:

— Maharaj! Men bor joyda siz nega tashvish tortasiz? Bu bolalarga men o'zim ta'lim beraman, o'zim nodonlik zulmatidan chiqarib, hikmat ilmining kuchi birlan haq yo'lni ko'rsataman. Bu ishni menga qo'yib bering. Sizning xotiringiz jam bo'lsin, bemalol davlat ishlariga qarayvering. O'rnida va keragida qilingan mehnatgina samara beradi, degan gap rostdir. Turnani yuz o'qit, ming o'qit, foydasi yo'q, baribir to'tiga o'xshab gapira olmaydi. Xuddi shuningdek, bilim har kimga ham yuqavermaydi, es-hushli odamga yuqadi.

Sizning o'g'illaringiz uncha-muncha odamlar emas, shahzodalar axir. Shoh xonadonida beaql farzand tug'ilishi mutlaqo mumkin emas. Buning ustiga sizning o'zingiz ham ulug' bir donishmand odamsiz. Bu yerda bir kamchilikka yo'l qo'yilgan — bolalarga ta'lim-tarbiya to'g'ri uslubda berilmagan. Hozir men bu bolalarni, ijozat bersangiz, o'zim bilan olib ketaman. Men sizga va'da beraman: ularga hikmat ilmidan shunday saboq beramanki, olti oy ichida farzandlarhigiz tengi yo'q olim bo'lib yetishishadi.



Ulug' olim Vishnujiyning bu gaplaridan raja Sudarshanning boshi osmonga yetdi. Yelkasidan tog' ag'darilgandek bo'ldi. U huddi shuni, ya'ni farzandlarining to'g'ri yo'lga kirishi va raiyatning baxt-saodatini xohlardi. Donishmand va ilm-hikmat fanini to'liq egallagan raja hech qachon xor-zor bo'lmaydi, raiyati ham hamisha farovonlikda umr kechiradi.

Raja Sudarshan shularni xayolidan o'tkazdi-da, o'g'illarini Vishnujiyning qo'lga topshira turib dedi:

— Panditjiy, mening o'g'illarimga ilm-hikmat fanini o'rgatishga yolg'iz sizgina qodirsiz. Shu bugundan e'tiboran ikkala o'g'limni sizga topshiraman, nima qilsangiz ixtiyor o'zingizda.

— Minnatdorman, maharaj. Men sizni ishontirib aytamanki, bergan va'damning ustidan chiqaman. Shunday deb, pandit Vishnu rajaning o'g'illarini o'zi bilan birga olib ketdi.

BIR O'Q BILAN IKKI QUYONNI...

Pandit Vishnujiy ikkala shahzodani kulbasiga boshlab keldi. Zimdan ularning xulq-atvoriga razm soldi. Ko'rdiki, ikkala bolaning ham xulq-tarbiyasi obdan buzilib bo'lgan.

Ikkovi ham din-mazhab, qarz-farz degan narsalardan deyarli nafratlanardi. Ikkala shahzoda butun vaqtini o'yin-kulgi, kayf- safo bilan o'tkazishni xohlardi.

Pandit Vishnujiy o'z ilmining qudrati bilan bolalarning ko'ngil nidosini eshitib olgan edi. Ularga to'g'ridan to'g'ri ilm tiqishtirishdan hech bir foyda yo'qligini angladi. Bunday yo'l tutilgan taqdirda yo ular qochib ketishardi, yoki panditga qarshi bosh ko'tarishardi. Buni Panditjiy juda yaxshi tushunardi. Shuning uchun u ilm o'rgatishning yangi bir yo'lini o'ylab topdi. Bu yangi usulga muvofiq shahzodalar ham ko'ngil ochardi, ham ilm o'rganardi. Ya'ni donishmandlar aytganidek, bir o'q bilan ikki quyon urilardi.

Birinchi kecha ikkala shahzoda Panditjiyning kulbasida juda yaxshi yotib turishdi. Ertasi kuni ertalab, Panditjiy ikkovini oldiga chaqirdi-da, gap boshladi:

— O'g'illarim, mening gapimga quloq beringlar, — dedi Panditjiy nihoyatda mehribonlik bilan. — Aqlli odam vaqtini behudaga sarf qilmaydi, o'qish, yozish, ilm o'rganishga sarf qiladi. Ahmoq odam esa umrini uyqu-yu urish-janjal bilan o'tkazdi. Shuning uchun men sizlarga qiziq-qiziq hikoyalar aytib bermoqchiman. Hir-biridan qiziqarli, turfa xil bu hikoyatlarni tinglab mazza qilasizlar. Axir qarg'a, toshbaqa, sher, kiyik kabi qush-hayvonlar haqidagi hikoyatlarni kim ham yaxshi ko'rmaydideysiz! Shu hikoyatlardan dastlabkisining mazmuni quyidagicha: odamda qurol-aslaha, mol-davlat bo'lmasa-yu uning aql-farosati bo'lsa, u boshqalar bilan bahamjihatlik va inoqlik bilan ish tutib, har qanday qiyin yumushni osongina hal qilishi mumkin. Olamda turli-tuman, bir-biriga o'xshamaydigan mavjudotlar yashaydi. Ularning o'rtasida har xil janjallar, xususan, yer va mol-mulk talashgan urish-janjallar bo'lib turadi. Bu narsalarning hammasini hal qilish uchun aql-zakovat darkordir. Aqlli odam hamma narsaga yetishadi, aqlsiz odam esa bor-budidan ayriladi. Hamjihat bo'lgan qarg'a, toshbaqa va kiyik xuddi shuni isbot qilgan.

— Qandoq qilib, panditjiy? — qiziqib so'radi ikkala shahzoda.

— Mana, bo'lmasa, eshitinglar.

Shunday deb pandit Vishnu Sharma hikoyatni boshladi:

— Go'davariy daryosining qirg'og'ida ulkan bir daraxt bo'lib, uzoq-yaqindan uchib kelgan qushlar uning shoxlariga qo'nib hordiq chiqarardi. Boshqalari shu daraxtga qo'ygan inlarida kechasi dam olardi-da, tong otishi bilan yana qorin to'ydirish g'amida chor-atrofga uchib ketardi. Bir kuni ertalab shu daraxtga dam olish uchun qo'ngan qarg'aning ko'zi pastda yurgan ovchiga tushdi. Ovchining qo'lida to'r bor edi. Qarg'aning ko'ngliga vahima tushdi.

„Bu Yamraj — ajal elchisi erta-saharlab qayoqdan kelib qoldi,— deb o'ylay boshladi qarg'a. — Buning qonli qo'hlan qochib qutulish juda dargumon-ku. Hozircha, joy mo'ljallab turganga o'xshaydi, u qulay joyni ko'rdi deguncha shartta to'rini yoyadi. E, voh! Qanchadan-qancha begunoh ma'sum qushlar buning domiga ilinadi. Keyin hammasini u nobud qiladi. Pul topish payiga tushgan bu nobakor odam qushlarni olib borib sotadi. Odamlar esa bu bechoralarni so'yib, go'shtidan taom tayyorlaydilar, suyaklarigacha g'ajiydilar.

Endi nima qilsam ekan, o'rtoqlarimning boshiga katta musibat tushadigan bo'lib turibdi-ku, deb o'ylabdi qarg'a. U ko'rdiki, ovchi bir daraxtning atrofiga guruch sochib chiqyapti. Hozir to'rini yoyadi. Sho'ring qurg'ur soddadil och qushlar shu tuzoqqa ilinadi-qo'yadi. Shuni o'ylab, qarg'aning tashvishi orta bordi. Ovchi esa to'rini yoyib bo'ldi-da, nariroqdagi boshqa daraxtning panasiga borib o'tirib, o'ljasini kuta boshladi. Ko'p o'tmay bir gala kabutarlar uchib kelib daraxtga qo'ndi. Kabutarlar rajasining ko'zi yerda sochilib yolgan guruchlarga tushdi. Guruchni boshqa kabutarlar ham ko'rdi ko'rdilar-u hammasining og'ziga suv kelib ketdi. Aftidan, ularning qorni juda och edi. Och qolganga, ma'lumki, hamma narsa ovqat bo'lib ko'rinadi. Bu sho'ring qurg'urlarning aybi nima edi!

Guruchni ko'rgan kabutarlarning uchgisi kelmay qoldi. Chunonchi ulardan biri rajasiga qarab dedi:

— Maharaj! Anovini qarang, tayyor ovqat turibdi. Ovqat bo'lganda ham unaqa-bunaqa ovqatmas, naq dona-dona guruchning o'zginasi-ya. To'yib yesak, bir rohat qilardik-da. Ochlik juda tinkani quritib yubordi-ku.

Kabutarlarning rajasi fuqarolariga o'ychan nazar tashladi- da, dedi:

— Birodarlarim, guruchga tashlanishdan oldin bir o'ylab ko'ring-a, bu yaqin atrofda odam turadigan joy bo'lmasa, guruch bu yerga qayoqdan kelib qoladi, axir! Xo'sh? Ko'nglim shundoq sezib turibdi — buning bir balosi bor.

— Nimalar deyapsiz o'zi, maharaj! Bizning holimizga ham bunday qarang axir, ochlikdan bo'larimiz bo'ldi-ku,— deb e'tiroz bildirdi hamma kabutarlar bir ovozdan.

— Do'stlarim! Men faqatgina sizlarnmg qorningizni to'ydirishni o'ylamasligim kerak, balki hayotlaringiz haqida ham qayg'urishim darkor. Sizlar bilan mening o'rtamda birgina farq bor — sizlar fuqaro, men esa raja. Fuqaroning g'amini yemagan raja hech qachon raja deb atalishga haqqi yo'q. Bu gap eslaringizda bo'lsin: sodda fuqaro xato qilib qo'yib, hayotini xavf ostida qoldirishi hech gap emas. Shu xavf-xatardan uni qutqarish esa rajaning farzidir.

— Lekin maharaj, o'zingiz ham bundoq bir o'ylab ko'ring. Hammamiz och bo'lsak, xo'rak shundoqqina tapatayyor turgan bo'lsa-yu, qandoq qilib yemaylik axir! Shuni yeb, qorin tashvishidan xalos bo'lsak, deydik, bunaqa ovqatni yana qaytib ko'ramizmi, yo'qmi? Har holda ochlikdan o'lib-netib ketmaylik, deymiz-da, — dedi kabutarlar.

— Gaplaringiz to'g'ri, azizlarim, — dedi raja, qorinlaringiz ochligini juda yaxshi bilib turibman. Lekin men boshqa narsadan cho'chiyapman. Bir ochko'z yo'lovchi tilla taroqni qo'lga kirilish ko'yida qari sherning gaplariga laqqa tushib, ahmoqligi tufayli botqoqqa botib jonidan ajralgandi. Tag'in bizga ham o'sha odamning kuni kelmasin — deb qo'rqyapman.

Bu qanday bo'lgandi? — qiziqib so'radi kabutarlar. Mana, bo'lmasa o'sha yo'lovchi haqidagi alamli hikoyatni eshitinglar. Bu hikoyatni eshitib, sizlar yomon niyatlilarning naqadar ayyor va firibgar bo'lishi mumkinligini bilib olasizlar. Shunday deb, kabutarlar rajasi hikoyasini boshladi.

QARI SHER VA OCHKO'Z YO'LOVCHI

Bir kuni Vrindavanning qalin o'rmonlari ustidan uchib ketayotgan edim. Kel, biron daraxtga qo'nib birpas hordiq chiqaray, dedim o'zimga o'zim. Men mo'ljallagan daraxtniig shundoqqina yonida birhovuz bor edi. Kun juda qizib ketganligi uchun shu hovuzning suvidan ichib, chanqog'imni bosarman, deb xayolimdan o'tkazdim. Endi daraxtga qo'nganimni bilaman, qarasam, hovuzdan bir bahaybat sher yuvinib-taranib chiqib kelyapti. Shu o'rmonda sariq daraxt bo'lib, uning novdasi uzoqdan qaraganda xuddi oltinday tovlanardi. Sherning panjasida ana shunday daraxtdan qilingan taroq bor edi.

Sher qarib, kuch-quvvati ketib, ov qilishga yaramay qolgan edi. Shu mahal nariroqdan uch-to'rt yo'lovchi o'tib qoldi. Sher ularni ko'rdi-yu, darrov aqlini ishga solib, o'ljasiga tuzoq qo'ydi. Yo'lovchilarga qarab, murojaat qildi:

— Hoy birodarlar, manavi oltin taroqni ola ketinglar. Sherning ovozi eshitib, ketayotgan odamlar taqqa to'xtashdi.

Ular juda hang-mang bo'lib qolishgandi. Iye, bu qanaqasi bo'ldi? — deb o'ylashdi ular. Oltin taroq sherda nima qilsin? Bu yerda hoynahoy biron-bir sir bo'lsa kerak, degan fikrga keldilar yo'lovchilar. Muqaddas kitoblarda aldamchi va qonxo'rlar birov uchun foydali ish qilmoqchi bo'lganlarida ham, unda biron-bir xatar pinhon bo'ladi, deb bitilgan-ku. Amrit ming foydali bo'lmasin, agar zaharga qo'shilsa, u ham zaharga aylanadi qo'yadi. Lekin zahmat chekmasdan turib mol-dunyo topib bo'lmaydi. Odam hamma narsadan qo'rqib, bir chekkada kutib o'tiraversa, hech bir ishi ro'yobga oshmaydi.

Yo'lovchilardan biri shu gaplarni dilidan o'tkazdi-da, uch- to'rt qadam olg'a yurib, sherga dedi:

— O'rmon rajasi! Qani, oldin ko'rsat-chi, qo'lingdagi rostdan ham tillamiyo tilla emasmi? Sher qari bo'lsa ham juda quv edi. Yo'lovchilarning eng avval shu narsani so'rashlarini bilardi. Binobarin, u javobni oldindan tayyorlab ham qo'ygandi. Shartta haligi sariq yog'ochdan qilingan taroqni ko'rsatdi. Taroq uzoqdan asl tilladan ham yaxshiroq yaltirardi.

— Hoy o'rmon rajasi! Sen bir yirtqich hayvon bo'lsang. Sening gapingga kim ishonardi? — dedi boshqa yo'lovchi.

Sher kulimsiradi-da, yo'lovchiga qarab dedi:

— Gaping to'g'ri, oshna. Sening o'rningda bo'lganimda men ham xuddi shunday deb o'ylagan bo'lardim. Sher zoti bilan odamzod azaldan bir-biriga dushman bo'lib kelgan. Men yoshligimda qanchadan qancha odamlarning qonini to'kdim, ularning qoni va go'shti bilan qorin to'ydirdim. Bugina emas, ming- minglab hayvonlarni ham o'ldirib yubordim. Mana endi shu qilmishlarimga afsus-nadomat chekib o'tiribman, o'zimni ulug' bir gunohkor deb his qilyapman. Bu xatolar yoshlikdagi xatolar edi. Endi men qarib qoldim. O'zimga o'zim shunday deb ahd qildim: bundan buyon na biron bir gunoh ish qilaman, na biron jonzo'tning qonini to'kaman. Umrinning qolganini shu hovuzning bo'yida o'tirgancha xudoning nomini tilga olib, tavbat-zarru bilan o'tkazaman. Har kuni hovuzda cho'milib, pokiza bo'lib, toat-ibodat bilan mashg'ul bo'laman. Qo'limga biron-bir qimmatbaho buyum tushib qolsa, bitta-yarimtaga nazr- niyoz qilib, shu bilan gunohimni yuvaman. Mening gaplarimga ishonaver, oshna. Hozir sherligimdan quruq nomini qolgan, xolos. Aslida esa xudoning eng sodiq muridiman, din-mazhab etagini mahkam

tutganman. Manavi gapga quloq sol, — gapida davom etdi sher, — shastrlarda quyidagi 8 xil fazilat tavsif qilingan: 1) qurbonlik qilish; 2) vedalarni o'rganish; 3) nazr- niyoz qilish; 4) tarki dunyo qilish; 5) rost gapirish; 6) matonat; 7) birovlarining aybidan o'tish; 8) ochko'z bo'lmaslik. Shulardan dastlabki to'rttasidan shuhrat topish maqsadida ham foydalanish mumkin. Lekin keyingi to'rttasi, donishmandlar aytganidek, nihoyatda ulug' ishlardir.

Men hozir butunlay tarki dunyo qilganman. Ochko'zlik degan narsa menga mutlaq begona. Biroq peshanam sho'rligini qaraginki, men sherman. Shuning uchun mening o'ta ketgan taqvodorligimga kim ham ishonadi? Sher odamga dushmanligi, uni yeyishi axil hammaga ma'lum. Shuning uchun manavi oltin taroqni hech kimga berolmayapman. Kimga, ma ol, desam, hammasi qo'rqib qochib ketadi.

Men muqaddas kitoblarni ham juda ko'p mutolaa qilganman. Ularda „Qaqragan yerga suv berish, och odamning qornini to'ydirish savob bo'lganidek, nochorlarga xayr-sadaqa qilish ham savobdir" deb yozilgan.

Mening jonim o'zimga qanchalik shirin bo'lsa, boshqalarning joni ham o'ziga shunchalik shirinligini men juda yaxshi anglab yetdim. Shuning uchun tushungan odamlar jonzotlarga rahm- shafqat qiladi.

Shastrlarda yozilishicha, birovning xotinini ona o'rnida ko'radigan, o'zganing mol-davlatini xok deb biladigan hamda hammaga birday yaxshi munosabatda bo'ladigan odamnigina pandit deb atash mumkin.

Men ilmim kuchi bilan sening kambag'al-nochorligingni bilib oldim. Binobarin, kambag'alga yordam berish men uchun ham qarz, ham farzdir. Nochor-bechoraning hojatini chiqargan odam gunohlardan forig' bo'ladi, deb men kitoblarda o'qiganman. Dorini kasal odamga berish kerak, shunda u tuzaladi, biroq soppa-sog' odamga dori berishning, puldorga pul berishning nima hojati bor?

Nazr-niyoz kambag'al va nochor odamga berilishi kerak. U mutlaqo beg'araz bo'lishi va oluvchiga to'liq foyda keltirishi lozim. Mening bilishimcha, shunday niyoznigina haqiqiy niyoz deyish mumkin.

Shuning uchun hovuzda cho'milib, xudoning nomini tilga ol, deb sendan o'tinib so'rayman. Toat-ibodat qilganingdan keyin manavi oltin taroqni olgin-u meni gunohlardan forig' qil.

Shunday qilib, sher yo'lovchini gap bilan o'rab-chirmab tashladi. Yo'lovchining yana ham ochko'zligi tutib ketdi. Shundoq oltin taroqni sadaqaga beryapti-ya! Hay, hay! Taroqni olib, qanchadan-qancha chala yotgan ishlarimni bitirib olishim mumkin. Shularni o'ylagan sari yo'lovchining sevinchi ichiga sig'may ketmoqda edi. Bir mahal kiyim-piyimini yechdi-yu, shartta o'zini hovuzga otdi. Og'aynilari uni to'xtatishga shuncha urinishdi, foydasi bo'lmadi. Mol-dunyo vasvasasiga uchrab, uning ko'ziga shundan boshqa hech narsa ko'rinmay qolgan edi. Bir necha daqiqadan keyin ko'zining oldida jilvalanib turgan shunday oltin taroq o'ziniki bo'lay deb turgan bo'lsa-yu, boshqalarning gapiga kirib ahmoqmidi!

Xullas, yo'lovchi hovuzga shalop etib tushdi-yu, oyog'i loyga botib, xuddi qoqib qo'yilganday qimir etmay qoldi. Oyog'ini chiqarishga shuncha harakat qildi, lekin foydasiz.

— Eh-ha, loyga botib qoldingmi? — so'radi shcr.

— Ha, o'rnion rajasi. Bu hovuz shundoq loy-balchiq ekan ku. Chiqolmayapman. Endi nima qilsaniikin?

— Nima qilishni endi menga qo'yib ber. Hozir seni balchiqdan tortib olaman-u keyin... — sher o'ljasiga qaragan ovchiday pisandsizlik bilan ochko'z insonga bir qarab qo'ydi. So'ngra bir sapchib hovuzga tushdi-da, haligi odamning giriboniga chang soldi.

— Hoy, hoy, nima qilyapsan o'zi? Meni yemoqchimisan, nima balo? Hoy, senga aytyapman, nima qilyapsan? Hozirgina menga sadaqa bermoqchi bo'lgan xudojo'y eding-ku.

— Men eng avvalo sherman, ana undan keyin xudojo'y bo'lsam bordirman. Buning ustiga o'larday ochman. Och sherdan dahshatli narsa bo'lmaydi. Ustiga-ustak qarib qolganman. Senga o'xshagan laqmalarni tuzog'imga ilintirmasam, qandoq qilib kun ko'raman?

Sher shunday dedi-yu, yo'lovchining ustiga tashlandi va ko'z ochib yumguncha laqma yo'lovchining tilka-porasini chiqarib, yeyishga tutindi. Buni ko'rib turgan boshqa yo'lovchilar o'takalari yorilib, orqalariga qaramay qochib qoldilar.

Hikoyatni tugatgach, kabutarlar rajasi hamrohlariga dedi:

— Shuning uchun men doim sizlarga o'ylamay-netmay turib, zinhor-bazinhor hech narsaga oshiqmanglar, deb tayinlayman. Deydilarki, yaxshi tayyorlangan taom qorin og'ritmaydi, esli-hushli, qobil o'g'il tashvish keltirmaydi, eriga sodiq xotin nopok yo'lga yurmaydi, xotirjam raja yoki boshqa birovga ozor yetkazmaydi. Zero, puxta o'ylab qilingan ishning oxiri voy bo'lmaydi. Rajaning gaplarini eshitib bo'lib, bir kabutar dedi:

— E, hadeb bizga nasihatgo'ylik qilaverasizmi? Qarib, kuch- quvvatdan qolib, boshqa ishga yaramay qolganda, hamma pand-nasihat qilishga o'tar ekan-da. Agar har xil bo'lar-bo'lmas narsalar ustida shunaqa bahslashib o'tiraversak, sal kunda ochdan o'lib ketishimiz hech gap emas. Yashash uchun turli xil qiyinchilik, to'siqlarni yengishga to'g'ri keladi. Har xil shubhalarga berilib, shu zaylda qo'rqib o'tiraveradigan bo'lsak, ajalimiz yetishi aniq.

Donishmandlar aytganki, hasadgo'ylik, birovdan nafratlanish, qanoatsizlik, serzarda bo'lish, har narsadan shubhalanaverish va tekinxo'rlik — mana shu olti xil sifat odamga hamisha g'am-kulfat keltiradi.

Kabutarining bu so'zlarini eshitgan barcha kabutarlar duv etib o'zlarini pastga urdilar. Ochlik parda bo'lib ko'zlarini to'sib qo'ygan kabutarlar to'r tagiga sohib qo'yilgan guruchga yopirildilar.

Endi buyog'i nima bo'lishi malum. Ovchi maqsadiga erishdi — kabutarlar bitta qolmay uning tuzog'iga ilindi. Ularning eng katta xatosi rajaning gapiga kirmaganliklarida edi. Kattalar gapiga kirmaslik borib turgan nodonlik ekaniigini ular endi tushunib yetdilar.

Shu tariqa tuzoqqa ilingan kabutarlar endi mahmadonalik qilgan kabutarga ta'na-malomat yog'dira boshladilar: „Sen rajaning gapiga kirganingda, shunday bo'lmasdi! Seni deb mana endi ado bo'ldik".

Kabutarlar rajasi dedi:

— Birodarlar! Bu sho'rlikda nima ayb? Yomon kunda do'st ham dushmanga aylanib qolishi mumkin. Axir sigirni sog'ayotganda ba'zan uning oyog'i buzoqni bog'lash uchun qoziq vazifasini o'taydi-ku.

Kabutarlar kunlari bitib qolganiga qaramay, uzoqni ko'zlab ish tutmoqda edilar. Buyog'iga baxtimizdan ko'rdik, deb ular tavakkal ish tutmoqchi bo'ldilar. Ular o'limdan qutulish uchun har xil tadbirlarni taklif qila boshladilar. To'r-po'rni ko'tarib, uchsakmikin, degan xayol ham keldi ularga. Ular o'ylay boshlashdi: biz ham xas-cho'plardan arqon to'qisakmikin? Axir poxoldan to'qilgan arqon badmast, quturgan fillarning oyog'iga kishan qilib solinadi-ku!

Xo'sh, bir g'ayrat ko'rsatsakmikin? G'ayrat qilish kerak, degan gap tushunib etildimi, bas, qandaydir g'ayritabiiy kuch o'z-o'zidan paydo bo'ladi, qoladi. Buning ustiga hozir kabutarlar yolg'iz emas edilar. Ularning rajasi ham ular bilan birga edi. Xuddi shu raja bu hikmatni kabutarlarning miyasiga obdan quyib, ularda yangi bir kuch-quvvat paydo qildi. Hozirgina

ajalini kutib yotgan kabutarlar endi rajaning gaplaridan ruhlanib yangi ko'tarinkilik bilan so'zlay boshladilar:

„Eng ulug' kuch — birlikdadir“, dedi bittasi.

„Xas to'planib, tepa bo'ladi“, dedi ikkinchisi.

„Tomchidan daryo bunyod bo'ladi“, dedi boshqasi.

„Shu daryolardan ummon paydo bo'ladi“, dedi yana biri.

„Nahotki shuncha kabutar bir bo'lib, shu arzimagan to'rni ko'tarib ucholmasak?“ — taklif qildi boshqasi.

— Nega endi ucholmas ekanmiz? Uchishga qurbimiz yetadi. Kabutarlar shunday fikrga keldi-yu hammasi baravar osmonga ko'tarildi.

Qarabsizki, kabutarlar to'rni ko'tarib ucha boshladi.

Ularni osmonda ko'rgan ovchi hang-mang bo'lib qoldi. To'ridan ajraganiga afsus-nadomat qilib, chuqur-chuqur xo'rsina boshladi. Sal o'tmay kabutarlar holdan toyib, yerga tushadi, degan umid bilan ovchi ularning ketidan yugurishga tushdi. Ancha joygacha yugurib bordi, biroq u o'ylaganchalik bo'lmadi. Halloslab, tili osilib, qaytib keldi.

To'rni ko'tarib uchib ketayotgan kabutarlar tashvishli ovoz bilan rajaga qarab murojaat qildi:

— Maharaj! Siz bizni ovchining changalidan qutqaiib, bizga katta ehson qildingiz, shu bilan fuqarolarining boshiga kulfat tushganda ularni unutmaydigan haqiqiy raja ekanligingizni isbot qildingiz. Agar siz xohlaganingizda bizdan voz kechlshingiz va o'lini xavfiga duch kelmasligingiz munikin edi. Lekin sizning o'zingiz bizning qatoriniizga kelib qo'shildingiz. Endi muhtaram raja, ayting- chi, endi qandog qilib shu to'r degan balodan qutulsak bo'ladi?

— Birodarlarim, — deb gap boshladi raja, — ayrimlar o'z g'arazi uchun birov bilan oshna tutinadi. Lekin raja, ota-ona va do'st yaxshi kunda ham, yomon kunda ham hamroh bo'ladi. Shu topda bir qadrdon do'stim yodimga tushdi. Hozir hammamiz o'sha qadrdon Hiranyakaning oldiga boramiz. Dardimizga o'shagina davo bo'la oladi, chunki u sichqonlarning podshosidir. Bu to'rni o'shalardan boshqa hech bir kimsa qirqa olmaydi.

Shundan so'ng kabutarlar raja aytgan tomonga, uning qadrdon do'sti bo'lmish sichqonlarning podshosi Hiranyakaning huzuriga qarab parvoz qila boshlashdi.

SICHQON KABUTARLARGA DO'ST TUTINDI

Kabutarlarning kattakon to'rni ko'tarib, uyi oldiga kelib tushganini ko'rgan sho'rlik Hiranyakaning o'takasi yorilib, iniga kirib ketdi.

Kabutar raja unga dedi:

— Hoy birodar, men sening do'sting bo'laman axir! Namuncha qo'rqmasang? Chiq bu yoqqa iningdan. Do'stingni tani mayapsanmi? Kabutar rajani darrov unutib yubordingmi?

Hiranyaka do'stining ovozini darrov tanidi, lip etib inidan chiqdi. Do'stiniko'rib, sevinchi ichiga sig'may o'yinga lusliib keltli

— E, voh! Qandog baxtli kun ekan bugun! dedi u. Do'stim meni ko'rgani uyimga kelibdi! Bir odam bunday deb juda to'g'ri aytgan ekan: Do'sti bilan diydor ko'rishgan, u bilan birga yashash sharafiga muyassar bo'lgan, yaxshi-yomon kunda oldiga dardlashgani kelgan odamdan ham baxtli kimsa bo'lishi mumkinmi dunyoda!"

Shunday deb Hiranyakaning ko'zi kabutarlar ilinib yotgan to'rga tushdi.

— Ha, o'rtoq, bu nimasi? — deb so'radi u.

— E-e, o'rtoq, nimasini aytasan, boshimizga shu falokat tushib qoldi. Oldingi tug'ilishimdagi qilmishlarim mevasi bu, shundoq deb tushunaver.

Inson nimaki yaxshilik yoki yomonlik qilgan bo'lsa, xuddi shu narsa yaxshilik yoxud yomonlik bo'lib, uning o'ziga qaytib keladi. Insonning xastalikka chalinishi, boshiga g'am-alam, kulfat tushishi kabi xunuk hodisalar borki, jami insonning qabih qilmishlari daraxtidagi zaharli mevalarning o'zginasidir.

— Men bor gapni tushundim. Boshingga og'ir kulfat tushganini bildim. Lekin sen hech g'am yema. Bu yog'ini menga qo'yib ber. Og'ir kunda haqiqiy do'stgina jonga oro kiradi. Yo'qsa, bunday do'stning boridan yo'g'i yaxshi. Shunday deb Hiranyaka ishga tushib ketdi.

Hiranyaka to'rning pishiq arqonlarini qirqa turib, bir-ikkita tishini sindirib ham oldi. Shunda u kabutarlar rajasiga qarab dedi:

— Bu deyman, to'ringni qirqib bo'lguncha, tishimdan bitta qolmaydiganga o'xshab turibdi. Shuning uchun, oshna, dastavval seni ozod qilsam, deb o'ylab turibman. Tag'in butun sheriklaring yorug'likka chiqsa-yu, sen to'rda qolib ketmagin, deyman-da.

— Yo'q, o'rtoq, bunday emas. Shu kabutarlarning jami mening fuqaroim. Fuqaroning g'amini yeyish esa rajaning burchidir. Shuning uchun eng avvalo shularni ozod qil.

— O'z qayg'usini qo'yib, o'zgalar qayg'usini qilish — bu hech bir qoidaga mos kelmaydi. Eng keragi — joning salomat bo'lsin. Qolgan ishlar bo'laveradi. Agar o'zing hayotdan ko'z yumib ketsang, unda kimga keraging bor? Kimga yordam qila olasan? Shuning uchun shu gap doimo qulog'ingda bo'lsin: joning omon qolsa, o'sha davlating.

— To'g'ri, o'rtoq, juda to'g'ri gaplarni aytding, — dedi kabutar raja. — Lekin ne qilayki, do'stlarimni azobga qo'yib qarab turolmayman. Shuning uchun ham avval bularni tuzoqdan xalos qil, deyman. Axir donishmandlar mol-davlat o'zgalarning ezguligiga xizmat qilishi lozim deyishgan-ku. Modomiki, bir kun kelib mol-davlat ham, hayot ham tugar ekan, shuni xayrli ishga baxshida qilgan afzal emasmi?

Avval bularni qutqar, deyayotganimning boshqa tomoni ham bor — men bular bilan bir toifaman. Men raja, ular esa fuqaro. Men shoh bo'lib ozod bo'lsam-u, fuqarolarim tutqunlikda qoladimi? Yo'q, bunday shohlikning menga aslo keragi yo'q.

Yana bir gap. Bular kecha-yu kunduz, har yerda meni ta'riflagani ta'riflagan. Buning uchun bular mendan sariq chaqa pul so'rashmaydi. Mening shu bugun raja degan nomim borligi shular tufaylidir. Sadoqat timsoli bo'lmish bu kimsalar menga tobedirlar. Bas, shunday ekan, men o'z jonimni xavf-xatarga solib bo'lsa ham, avval shularni ozod qilaman.

Tan nima degan narsa? U et, ustixon va najosatlardan iborat bir narsa, xolos. Shuning uchun menga u qadar ahamiyati yo'q. Menga tanamni omon saqlab qolishdan ko'ra, tutqunlarni hi-moya qildi, ularni asrab qoldi, degan nom ming marta afzalroqdir.

O'zing bunday bir o'ylab ko'r: agar men tanimni qurbon qilish evaziga dunyoga nomim taralsa, shon-shuhrat qozonsam, buning nimasi yomon? Axir bundan ortiq narsa bo'lishi mumkinmi? Tana va nom o'rtasida yer-u osmoncha farq bor. Tana bir zumda yo'q bo'lib ketishi mumkin. Biroq yaxshi nom, fazilat aksincha, dunyo turguncha turadi.

Kabutar rajaning bu so'zlarini eshitib, Hiranyakaning ko'zi ochildi. Juda mamnun bo'lib gap boshladi: tillaga teng keladigan gaplarni aytding-da, do'stim. Shu bugun sening faqat buyuk rajagina emas, balki ulug' bir zotligingni ham bildim. Senga o'xshagan podshohlar uchala olamda hukmronlik qilishi kerak. Mana hozir mening fuqarolarim — sichqonlarim yetib kelishadi va ko'z ochib yumguncha to'rni qirqib tashlashadi.

Darhaqiqat, bir zumda yetib kelgan sichqonlar xash-pash deguncha to'zni qirqib, kabutarlarni bandilikdan xalos etdilar. Shunda kabutarlarning podshosi hamrohlariga yuzlanib dedi:

— Do'stlarim, to'rga tushib katta bir gunoh ish qildim, degan gap xayollaringizga ham kelmasin va o'zlaringizni aybdor deb ham bilmanglar. Chunki och qolgan har qanday kimsa bunday xatoga yo'l qo'yishi mumkin. Masalan, qirg'iyni olib ko'ringlar. Osmon-u falakdan turib, bir parcha go'shtni ko'radi-yu, lekin ajali yetib turganda, shundoq tumshug'ining tagidagi tuzoqni ko'rmay qoladi. Mana shundoq Quyosh va Oy ham tutiladi. Bahaybat fil ham zanjirband qilinadi. Zaharli ilonlar qafasga tashlanadi. Mana man degan donishmandlarning boshiga ham og'ir kunlar tushadi. Bularning oldida biz nima bo'libmiz! Baland osmonda uchib ketayotgan qushlar ham falokatga uchrashi, ya'ni bo'ron- to'fonga duch kelib qolishi mumkin. Suvning qa'rida yurgan timsohlar ham to'rga ilinadi. O'lim uchun hech narsaning farqi yo'q: yaxshimi, yomonmi, baribir o'z domiga tortib, nes-nobud qiladi. Shu so'zlar bilan kabutarlar rajasi so'zini tamom qildi. Hiranyaka jarni kabutarlarni izzat-ikrom bilan uyiga taklif qildi, ularni yaxshilab ziyofat qildi-da, keyin xayr-xo'shlashdi.

SICHQON BILAN QARG'ANING DO'ST TUTINISHI

Kabutarlar rajasi o'z fuqarolari bilan birga fazoga ko'tarildi-yu, baland tog'lar sari yo'l oldi. Ikki do'stning quyuq xayrlashayotganini ko'rgan daraxtdagi qarg'a ularga suqlanib qaradi, ularga juda-juda havasi kelib, birov bilan shunaqa do'st tutingisi kelib ketdi. Qaniydi, mening ham shunaqa do'stim bo'lsa-yu, og'ir kunda jonimga oro kirsam. Bularni xayolidan o'tkazgan qarg'a chuqur xo'rsinib qo'ydi.

Hiranyakaga o'xshagan do'st har kimga nasib qilavermaydi, deb o'yladi qarg'a. Bunaqa do'st faqatgina peshanasi yarqiraganlarda bo'ladi. Men ham u bilan o'rtoq bo'lsammikin?

Shunday deb, qarg'a uchib, Hiranyakaning uyi oldiga keldida, gap boshladi.

— Hiranyaka, ho', Hiranyaka! Birodar, men sen bilan ikki og'iz gaplashadigan gapim bor edi. Do'st tutinsak, devdim. Shunga nima deysan?

— Iye, birodar! Men seni hali tanimasam, kimsan, qayerdan kelgansan,' bilmasam! Qandoq qilib bir necha dey?

— Men qarg'aman. Shu o'rmonda istiqomat qilaman. Lekin o'rmonda bironta ham do'stim yo'q.

— Ey, birodari aziz! Men sen bilan qandoq qilib do'st tutinishim mumkin? Men sen uchun yemish bo'lsam, sen bilan qanday do'st tutinishim mumkin? yemish bilan kushandaning do'stligi azob-uqubatning uyasidir. Bir kiyikning shaqal bilan do'st tutinib, qanday baloga giriftor bo'lganini eshitganmisan?

— Yo'q, eshitmaganman. Nima bo'lgan ekan? — qiziqib so'radi qarg'a
Eshitmagan bo'lsang, mana eshit. Shunday deb Hiranyaka liikoyatni boshladi.

KIYIK VA SHAQAL HAQIDA HIKOYAT

Bir o'rmonda kiyik bilan qarg'a juda inoq hayol kechirishardi. Ular shu qadar qalin do'st ediki, butun o'rmondagilarning havasi kelardi. Kiyik nihoyatda go'zal, tirsillagan, bilqillagan edi.

Bir kuni bir shaqalning shu kiyikka ko'zi tushib qoldi- yu, og'zining suvi kelib ketdi: „E, voh! Ana kiyik-u, mana kiyik! Semizligini, go'shtdorligini qara-ya! Yesang mazasi og'zingda qolsa kerak — deya xayolidan o'tkazdi shaqal. Lekin buni qandoq qilib o'lja qilsam ekan, deb boshi

qotdi uning. Uni tutish oson ish emas, shaqal o'zining dushmani ekanligini kiyik yaxshi biladi. Shuning uchun uni ko'rdi deguncha tumtaraqay qochib qoladi.

Shaqal zo'r berib o'ylay boshladi. Bir zumda hiyla-nayrangardan iborat rejani miyasida yaxshilab pishitdi. U kiyikning osonlik bilan qo'lga tushmasligini yaxshi bilardi. Shuning uchun do'st tutinib, kiyikni qo'lga kiritish yo'lini tanladi.

Shaqal rejasini pishitib bo'lgach, kiyikka yaqinlashdi, yuzida tabassum bilan dedi:

— E-e, o'rtoqjon, bormisan o'zi? Ishlaring yaxshinii? Keyingi paytda juda kamnamo bo'lib ketding? Tinchlikmi o'zi?

— Sen kim bo'lasan, birodar? Men seni tanimayman,— javob berdi kiyik.

— Men shaqalman, senga o'xshab men ham shu o'rmonda yashayman. Aslida gap shundaki, yolg'izlik juda jonimga tegdi. Biror ishga qo'lim bormay qoldi. Shundoq hayhotday o'rmonda bir o'zimman. Mening holim ne kechayotganini bir o'ylab ko'ra. Shuning uchun ham bitta-yarimta bilan do'st tutinishga ahd qildim. Shunday qilsam, birinchidan, zerikmayman, ikkinchidan, bir do'st orttirganim qoladi.

— Agar shunchalik qiynalib qolgan bo'lsang, senga do'st tutinganim bo'lsin, — dedi kiyik.

Shundan keyin ikkovi quchoqlashib ko'rishishdi va shu tariqa do'st bo'lishdi. Ikkovlari uzoq vaqtgacha suhbatlashib, ko'ngil yozishdi. Kiyikning nazarida u haqiqiy do'stini topgandek tuyuldi. Chunki shaqal shirin so'zlashga ustasi farang edi. Gapirganida og'zidan bol tomar, to'g'ri, soddadil, laqmagina kiyik sho'rlik esa uning gaplariga chippa-chin ishonardi. Shu zaylda ular sulib batlashib o'rmonni aylanib yurdilar. Ular yura-yura kechki payt bir daraxtning oldiga kelishdi. Shu daraxtda kiyikning do'sti bo'lmish qarg'a yashardi. Do'sti kiyikning shaqal bilan birga yurganini ko'rgan zamon qarg'aning peshanasi tirishdi. Kiyikka siltab gapirdi:

— Xo', kiyik birodar? Kim bu yoningdagi?

— Bu yangi do'stim shaqal bo'ladi. Bu sen bilan ham o'rtoq bo'lmoqchi. Sho'rlik yolg'iz ekan. Butun boshli o'rmonda hech kimi yo'q emish.

— Kiyik o'rtoq, bir gap doimo qulog'ingda bo'lsin: hech qachon begonalar bilan birdan ilakishib ketmaslik kerak. Undan keyin bu shaqal haqida hech narsa bilmaysan-ku. Tanimagan-sinamaganga qanoting ostidan joy bermasliging lozim. Bir zamonlar qari kalxat xuddi shunday xatoga yo'l qo'ygan ekan, — dedi qarg'a.

— Qanaqa xato ekan u? — so'radi kiyik.

— U bir silovsinga panoq berib, o'ziga o'lim tilab olgan ekan.

— Rostdanmi, qanday qilib? — kiyik bilan shaqal baravar so'rashdi.

— Mana eshitinglar shu haqdagi hikoyatni.

Qarg'a shunday deb, hikoya qilishga tushdi.

KALXAT VA SILOVSIN HAQIDA HIKOYAT

Gang daryosining sohilida quyuq soya solib turadigan ulkan va qari banan daraxti bo'lib, unda bir kalxat yashardi. Kalxat qari qolgan, o'tkir tirnoqlari to'mtoqlashgan, ustiga-ustak ko'zi ham xiralashib qolgan, shu sababli o'lja topib, qornini to'ydirishga ham qurbi yetmay qolgan edi.

Kalxatning bu ahvoliga rahmi kelgan, shu daraxtda yashaydigan boshqa qushlar har kuni topgan-tutganlaridan bir ulushni kalxatga berishar ekan. Kalxat shu yo'sinda qornini to'yg'izar va buning evaziga qushlarning bolalariga ko'z-quloq bo'lib turardi.

Kunlardan bir kun silovsin palaponlarni yeyish niyatida daraxt lomon yo'l oldi. Uning yaqinlashib kelayotganini ko'rgan qushchalar chiyillashga tushdi.

Iye, nima bo'ldiykin?" deb o'yladi kalxat shovqinni eshitib va ohista pastga tushdi. Kalxatga ko'zi tushgan silovsin „obbo endi tamom bo'ldim", deb o'yladi. „Bu kalxat bor ekan, ov qilishga yo'l bo'lsin. Men qushchalarni emas, aksincha, kalxat o'zimni o'ljaga aylanliradi".

Silovsin birpas o'ylab turdi-da, yana o'ziga o'zi dedi: „Hali xavf aniq namoyon bo'lmay turib, elburutdan qo'rqishga hojal yo'q. Bu o'zi bir qari kalxat bo'lsa, uni laqillatish uchun kahani ozgina ishlatish kifoya qilsa kerak. Bu qarib miyasi aynigan kalxat mening nayranglarimni qaydan bilsin.

Rejasini miyasida pishitib olgan silovsin asta kalxatning oldiga yaqinlashdi.

— Bu menman, kalxat amaki, — dedi u.

— Nega kelding bu yerga! Yaxshilikcha hoziroq kelgan yeringga jo'nab qol, bo'lmasa sog' qo'ymayman,— dag'dag'a qildi kalxat.

Kalxatning jahlini ko'rib, silovsin pishitgan nayrangini ishga soldi.

— Obbo amakijon-ey! Shunga ham shuncha jahlni? Men sizning oldingizga kelgan bo'lsam, bu yomon niyat bilan keldim, degan gap emas-ku. Siz meni silovsin zotidan bo'lganim uchun yaxshi ishlar qilishga qodir emas, deb o'ylaysizmi?

Bunday o'ylab qaraladigan bo'lsa, bizning eng katta kamchiligimiz shuki, birovga baho berishda uning zot-potiga qarab xulosa chiqaramiz. Vaholanki, yaxshilik yoki yomonlik qilish har kimning o'ziga bog'liq.

— Xo'p bo'пти, seniki ma'qul. Xo'sh ayt-chi, muddaoing nima? Nega kelding bu yerga?

— Amakijon! Men ham Ganga sohilida yashayman. Har tong turib ona Gangaga ta'zim bajo keltirishni kanda qilmayman. So'ng uning muqaddas suvlarida yuvinib-taranib, toat-ibodat qilaman. Men hozir shunday taqvodor bo'lib qolganmanki, hatto go'sht nomini ham og'zimga olmayman. Yaqinda uch-to'rtta qush kelib, sizning ham taqvodor bo'lganingizni aytdi. Sizning uzzukun toat-ibodat bilan mashg'ul bo'lishingiz hamda o'zgalarga ilmi donish tarqatishingizni ham men o'sha qushlardan eshitdim. Chunonchi, sizning ilmingizdan bahramand bo'lay va shu tariqa qilgan gunohlarimni yuvay, degan o'y bilan mana to'ppa-to'g'ri oldingizga keldim.

Kalxat silovsinning gaplarini obdan eshitib bo'ldi-da, unga qarab dedi:

— Gapimga quloq sol. Men senga bu yerdan ket, deganimning boisi shuki, sen silovsinsan, yemishing go'sht. Bu daraxt palapon qushlarga to'la. Ularni qo'riqlash esa mening vazifamdir. Kalxat so'zini tugatar-tugatmas silovsin chuqur ta'zim qildida, qulog'ining uchiga qo'lini tekkizib dedi:

— Amakijon, men muqaddas kitoblarni o'qiganimdan buyon go'shtdan hazar qilaman. Bugina emas, gunoh ishlarga ham qo'l urmaydigan bo'lib ketganman. Men hozii haftada bir kun ro'za tutishni kanda qilmayman.

— Amakijon, men bir narsadan qattiq iztirobdaman — qandoq qilib bir jonzod ikkinchisining go'shtini yerkin, deymen. Axir o'zining tanasi ham go'shtdan iborat-ku. Nahotki o'sha go'shtxo'rlar shu narsani tushunib yetmasa! Modomiki, o'rmondagi meva-chevalar bilan qorin to'ydirish mumkin ekan, birovni o'ldirishga ne hojat! Bilmadim, amakijon, bunaqa gaplar mening aqlimga sig'maydi. Men bunaqa narsalardan juda uzoqlashib ketganman.

Qari kalxat silovsinning hikmat to'la gaplaridan juda mamnun bo'ldi va silovsinning taqvodor bo'lib qolganiga chippa-chin ishondi-qo'ydi. Endi silovsindan qo'rqib o'tirishning hojati yo'q, demakki, biz bilan birga yashayversa bo'ladi, deb xayolidan o'tkazdi kalxat. Birga yashasak, avvalo bir do'st orttirganing qoladi, keyin bu biz bilan birga bo'lsa, hech qanday dushman bu tomonga yo'lamaydi, degan qarorga kelgan kalxat, unga shu daraxt tagidagi kovaklardan birida yashashiga ijozat berdi. Silovsinning o'ylagani ro'yobga chiqdi. U ertasiga tong otib, qushlar

uchib ketishi bilanoq ishga kirishdi. Har kuni ertalab daraxtga chiqib qushlarning bolasini bitta-bittadan tutib, o'z kovagida pok-pokiza tushiraverdi.

Ko'p vaqt o'tmay qushlar orasida sarosimalik boshlandi, vahima ko'tarildi. Bolasidan ayrilgan qushlar zor-zor yig'lab, bolalariga nima bo'lganini bilolmay, lol-u hayron edilar.

Ular o'ylay-o'ylay oxiri bolalarimizni yeyayotgan hoynahoy mana shu yirtqich kalxat bo'lsa kerak, degan xulosaga kelishdi.

Bu orada silovsin siri ochilib qolishini sezdi va qutulish yo'lini o'ylay boshladi. Qushlar kovakdagi suyaklarni ko'rib qolsa, tamom, hamma narsa oshkor bo'ladi- qo'yadi, palaponlarni kim tinchitayotgani ma'lum bo'ladi. Shunda ular bir zumning o'zidayoq cho'qib, etimni burda-burda qilib tashlashadi. Shularni o'ylab, silovsin o'limini ko'z oldiga keltirdi.

Demak, omon qolishning birdan bir yoli qochishdir, degan qarorga keldi silovsin va shu kechaning o'zidayoq g'oyib bo'ldi.

Ertasiga tong saharlab qushlar dushmanni axtarishga tushdilar va nogahon ulardan birining ko'zi kovakdagi uyulib yolgan suyakka tushdi. Qushlar aybdor kimligini darrov fahmladilar.

— Ha, biz o'ylagandek, bolalarimizni yem qilayotgan xuddi shu ablahning o'zginasi ekan! Biz uni sog' qo'ymaymiz! — deb ayyuhannoss solib kalxatning ustiga yopirilishdi. Kalxatdan hech narsani so'rab-surishtirib ham o'tirishmadi. „Senmisan hali bolalarimizni yeydigan“, deya bir zumda cho'qilab tashlashdi.

Shunday qilib, sho'rlik kalxat tilka-pora bo'ldi, firibgar va aldoqchi silovsin esa qutulib qoldi.

— Shuning uchun ham, kiyik o'rtoqjon, senga aytadigan so'zim shuki, sinashta bo'lmaganlar bilan oshna-og'aynigarchilik qilma, bundaylarni uyinga boshlab ham kirma,— deb hikoyasini yakunladi qarg'a.

KIYIK, SHAQAL VA QARG'A

Qarg'aning gaplaridan shaqalning jon-poni chiqib ketdi. — Hoy qoravoy, menga qara, — dedi u qarg'aga o'dag'aylab,— dastavval kiyik bilan uchrashganingda o'zing ham unga begona eding-ku. Xo'sh, unda qanaqa qilib oralaring bunday yaqin bo'lib qoldi? Xo'sh, gapir! Ilmli odam yo'q joyda, ahmoq odam izzat-ikrom ko'radi, daraxt yo'q joyda, buta ham daraxt o'rniga o'taveradi, degan gaplar bor.

Manavi meniki, anavi seniki, manavi falonchiniki, anavi pistonchiniki, degan gaplar fe'li tor, biqiq odamlarga xos. Bag'rikenglar uchun butun jahon bir oiladek gap.

— Men senga chin samimiyat bilan bir narsa demoqchiman: mana shu kiyik menga qanaqa do'st bo'lsa, sen ham menga xuddi shunaqa bo'lasan. Agar biz uchalamiz do'st tutinsak, unda kuchimizga kuch qo'shiladi. Ana shundagina o'rmonda birona zot bizga teng kelolmaydi va uchalamiz rohat-u farog'atda yallo qilib yuraveramiz.

Shaqalning gaplari qarg'aga kuchli ta'sir qildi va u kiyikka qarata dedi:

— Kel, bo'пти, o'rtoqjon, uchalamiz do'st bo'lsak bo'la qolaylik, qani ko'raylik-chi, bu do'stligimizning oxiri nima bo'larkin.

Shunday qilib uchovlon o'rtasida do'stlik rishtalari bog'lanib, birga yashay boshlashdi.

Kunlardan bir kuni shaqal kiyikni xoli topib dedi:

— O'rtoqjon, o'rmonning shundoqqina yonida bug'doyzor bor ekan. O'sha yerga seni olib borib, bir bug'doyga to'ydirib kelaymi? Bug'doy yeganning huzuriga nima yetsin! Shunga nima deysan?

— Sen boramiz deysan-u, men yo'q dermidim? Qam yur, ketdik,— javob berdi kiyik do'stining shashtini qaytarmay.

Ikkovlon bug'doyzorga yetib kelib, dalaga o'zlarini urdilar va kiyik yashnab turgan bug'doyni bir chekkasidan tushira boshladi. Dehqon bug'doyzorga tuzoq qo'ygan bo'lib sho'rlik kiyik shu tuzoqqa ilindi.

Tuzoqqa ilingan kiyik, endi meni faqat chin do'stim — shaqalgina xalos etishi mumkin, deb u yoq-bu yoqqa alanglay boshladi.

Kiyikning tuzoqqa ilinganini ko'rgan shaqalning sevinchi ichiga sig'may ketdi. „E, ana, reja amalga oshdi! Mana endi kiyikning shirin go'shtini mazza qilib yeb, murodimga yetadigan bo'ldin. Kiyik rosmana tuzoqqa tushdi, endi uni bu yerdan hech bir jonzot qutqara olmaydi. Demak, men ovqat qidirib ovorayi sarson bo'lib yurmayman. Bu oziq menga bir necha kunga yetadi". Shunday deb u kiyik tomon yurdi. Shaqalning kelayotganini ko'rgan kiyik xursand bo'lib ketdi. Juda paytida kelding-da, do'stim. Buni qara, tuzoqqa tushib qoldim. Tezroq harakat qilib, meni qutqarmasang, hozir dehqon kelib qolishi mumkin. Sen bilan do'stligimiz shu bugun asqatadigan bo'ldi. Axir ulug'lar aytgan-ku, chin do'st boshga kulfat tushganda kunningga yaraydi, deb. Do'st musibatda sinaladi, botir jangda, to'g'riso'zlik qarz berganda, ayol yo'qchilikda va aka-ukalar boshga ish tushganda bilinadi, deydi donishmandlar. Ular haqiqiy do'st qachon va qayerda bo'lishidan qat'i nazar — xursandchilikdami, g'am-tashvishdami, to'qlikdami yo yo'qlikdami, saroydami yo murda yoqiladiganjoydami— do'stiga yordam qo'lini cho'zishi kerakligini ham ta'kidlashadi.

Kiyikning bu gaplarini shaqal o'ta beparvolik bilan eshitdi.

— Do'stim, gap bunday. Bu tuzoq teridan qilingan. Bugun esa payshanba, ya'ni men teri-peri degan narsaga og'zimni urmayman. Chunki bugun mening toat-ibodat qiladigan kunim. Shuning uchun oshna, ko'nglingga kelmasin-u, lekin ertagacha sabr qilib turmasang hech ilojim yo'q. Ertaga ertalab kelaman-u, nima desang bajo keltiraman.

Sho'rlik kiyik chuqur xo'rsindi. Ha, endi tamom bo'pman, deb o'yladi. O'limi ko'z oldiga kela boshladi. Endi uni ajal changalidan xalos qiladigan hech kimsa yo'q edi.

U yoqda esa do'sti qarg'a kiyikni kutib o'tirardi. Vaqt allamahol bo'lib qolganligiga qaramay, kiyikdan hamon darak yo'q edi. Endi qarg'a bezovta bo'la boshladi. Kuta-kuta toqati toq bo'lib, do'stini qidirishga otlandi. O'rmondan o'tib, bug'doyzor ustidan ucha boshladi. Bunday qarasa, do'sti kiyik tuzoqqa tushib yotibdi.

— Ha, o'rtoqjon, nima qilib tuzoqqa ilinib yuribsan? — ajablanib so'radi qarg'a.

Do'stini ko'rgan kiyik zulmatda ziyo ko'rganday sevinib ketdi.

— Do'stining gapiga kirmagan kimsaning holi shunday bo'larkan. Do'st kim, dushman kimligini men shu bugun tushunib yetdim.

— Sen kim haqida gapiryapsan? — do'stining gapiga tushunmay so'radi qarg'a.

— E-e, o'rtoqjon, bu dunyoda ne-ne riyokor-tovlamachilar bor ekan, endi bildim. Bundaylarning tilida xudoning nomi-yu, qo'ynida pichoq bo'larkan. Og'izdagina do'st bo'larkan-u zimdan uning qonini ichish payida yurarkan. O'shandaylardan biri mana shaqal ekan — mening go'shtimga ilhaq bo'lib, og'zining suvi kelib turibdi. Orzusiga erishish uchun mana meni tuzoqqa ilintirib o'tiribdi.

— Ey, xom sut emgan banda! Har kimga ham ishonavermagin, deb men senga ming marta tayinlagan edim. Mana endi mening gapimga kirmay o'zingga o'zing o'lim chorlab o'tiribsan. Boshining tepasida o'lim sharpasi aylanib turgan kimsa ko'zi ko'r, qulog'i kar bo'lib qoladi, deb kim aytgan bo'lsa ham to'la haqdir. Shunday paytda, yor-do'stlarining pand-nasihatleri ham qulog'iga kirmas ekan. Axir, o'zing bunday bir o'ylab ko'r: shu shaqal qanaqasiga birovga do'st bo'lishi mumkin? Ustida sut, tagida zahar bo'lgan ko'za uloqtirib yuborilganidek, orqavorotdan

choh qaziydigan, lekin oldingga kelganda og'zidan bol tomadigan do'stdan darhol voz kechish kerak.

So'ngra qarg'a shaqalga qarab dedi:

— Sen yaramas tovlamachi, badkirdor ekansan. Bu nima qilgan qilig'ing! Sen do'stlikning yuziga tushgan dog'san! E, xudo, sen bunday osiy bandani qandoq qilib yer yuziga yubording? Nega sen ona-yer yukini og'ir qilding? Firibgarlar bilan do'st tutinib bo'lmaydi, deb donishmandlar bilib aytgan ekanlar. Bular do'stga ham, dushmanga ham yomonlik qilishdan tap tortmaydi. Yomondan yaxshilik kutish bema'nilikdan boshqa narsa emas. Bular cho'g'dek bir gap — ushlasang qo'lingni kuydiradi, o'chgandan keyin esa yuzingga qorasi yuqadi. Yana aytadilarki, tovlamachi qanchalar shirin-shakar gapirmasin, unga ishonma, chunki uning tilida bol, ichida esa zahar bo'ladi.

Shu orada tong otib qoldi. Bir mahal qarg'a qarasa, qo'lida kaltak ushlagan dehqon kelyapti. Qarg'a kiyikka qarab dedi:

— Sen darrov o'zingni o'lganga solib yotib ol, qorningni shishirib, oyoqlaringni tarvaqaylatib ol, men sening ustingga chiqib, xuddi ko'zingni cho'qiyotganday bo'laman. Shunda u seni o'lgan deb gumon qilib tuzoqni yechadi va qaytib ketadi. U uzoqlashganda men senga ovoz beraman, sen sakrab turib qochib qolasan.

Kiyik qarg'aning hiylasini tushundi. U aytganday qilib yotib oldi. Dehqon kelib qarasa, tuzoqdagi kiyik o'lib yotibdi. Buni ko'rib uning hafsalasi pir bo'ldi va tuzoqni yechib „Padariga la'nat, butun mehnatim zoye ketdi“, deb kiyikni solish uchun biror narsa olib kelish maqsadida orqasiga qaytdi.

Dehqonning qaytayotganini ko'rgan qarg'a ovoz berdi. Do'stining ovozini eshitgan kiyik o'rnidan turdi-da, juftakni rostlab qoldi, shirin joni omon qoldi. Qissadan hissa shuki, hech bir mavjudot o'z kushandasi bilan hech qachon do'stlashmasligi kerak. Bunday do'stlikning oqibati hech qachon yaxshi bo'lmaydi.

SICHQON BILAN QARG'ANING DO'STLIGI HAQIDA HIKOYAT

Ushbu hikoyatni eshitib bo'lgach, qarg'a sichqonga qarab dedi:

— Sichqon birodar. Bor ana, men seni yeb qo'ydim ham deydik. Xo'sh, o'zing ayt-chi, bundan nima chiqadi? Hech nima. Lekin men sen bilan o'rtoq bo'lsam-chi, unda ehtimol o'sha kiyikka o'xshab bir kun kuningga yarab qolarman yoki o'sha kabutar raja singari sen ham meni bandilikdan ozod qilib qolarsan.

Ezgu ishni amalga oshiradiganlarda inoqlik bo'lishi kerak, degan gap bor. Tarbiya ko'rganlar hech qachon vijdonidan voz kechmaydi. Sadhular jahli chiqqanini ham, ko'ngli buzilganini ham bildirmaydi. Xas-xashak qanchalik shiddat bilan yonmasin, dengizning suvini qaynatishga qodir emas.

— Ey, qarg'a birodar, — deya gap boshladi sichqon — sen beqaror kimsasan. Sendaylar bilan do'stlik qilib bo'lmaydi. Demishlarkim, silovsin, ho'kiz, qo'y, qarg'a va qo'rzoqlarga ishonganlar pand yeydi. Yana aytadilarki, sichqonlar bilan qarg'alar o'rtasidagi dushmanlik azaldan, bir necha tug'ilishdan beri davom etib kelmoqda. Xo'sh, shunday ekan, sen bilan qanday qilib do'st bo'lishimiz mumkin?

— E-e, birodar sichqonvoy. Bunaqa safsatalarni men ham ko'p eshitganman. Endi gap bundoq: sen bilan do'stlashishga men ahd-u qaror qildim. Bordi-yu yo'q desang, men shu topdan e'tiboran yeb-ichishdan voz kechaman, shu yerning o'zida jon beraman. Manavi hikmatni sen

ham eshitgan bo'lsang kerak: nobakorlar bilan oshna-og'aynigarchilik bamisoli bir loydan ishlangan ko'za — saiga chilparchin bo'ladi. Singanidan keyin esa uni ulab ham bo'lmaydi. Yaxshi bilan do'st tutinish esa aksincha, tilla ko'zaga o'xshaydi, avvalo uncha-munchaga sinavermaydi, singan taqdirda ham uni asl holiga keltirish oson.

Qarg'aning bu so'zlaridan sichqonning ko'ngli yumshadi. Qarg'a chindan ham men bilan do'stlashmoqchi ekan-ku, deb o'yladi-da, sichqon asta yurib inidan chiqdi.

— Gaplaring ko'nglimni rom qilib oldi. Mayli, shu bugundan e'tiboran sen bilan do'st bo'lganim bo'lsin! Lekin kabutar bilan do'stligimiz qandoq bo'lsa, sen bilan ham xuddi shundoq bo'ladi, degan umiddaman. Shunday do'st bo'laylikki, ko'rganlarning bizga havasi kelsin. Yaxshi kunda ham, yomon kunda ham bir-birovimizga ham dam bo'lamiz. Mard-u maydonlar aytgan gapining ustidan chiqadi. Ablahlarning ichi qora, sirti boshqa-yu, ichi boshqa bo'ladi. Haq go'ylar unaqa bo'lmaydi, sirti bilan ichi bir xil bo'ladi. Ko'nglida nima bo'lsa, tilida ham, ishida ham o'sha bo'ladi.

Shunday qilib, sichqon bilan qarg'a do'st tutinishdi. Sichqon inidan turli-tuman taomlar ohb chiqib, do'stini siyladi. Ziyofatdan keyin qarg'a xayrlashib, uyasiga uchib ketdi. Sichqon ham iniga kirib ketdi. O'sha kundan boshlab ikkovlari bir-biridan ayrilmaydigan bo'hb qolishdi. Kechalari o'tirib uzundan-uzoq suhbat qurishar, dardlashishar, birga yeb, birga ichishardi. Kunduzlari ham ajralishmas, biiga sayr qilib yurishardi. Ularning bu do'stligini ko'rgan o'rmon joni- vorlari hayron bo'lishardi. Bir kuni qarg'a sichqonga qarab dedi:

— O'rtoqjon bu yerlarda ovqat topish kundan kunga qiyinlashib ketyapti. Shuning uchun bu yerdan ketib, boshqa joyga uy qurish niyatidaman. Shunga nima deysan?

— Iye, bu gapni o'ylab gapiryapsanmi? Tish, soch, tirnoq va odam bir joyda o'sib-unadi. Joyi o'zgarsa, fayzi qolmaydi, degan gapni eshitmaganmisan? Turar joyni o'zgartirmoqchi ekansan shoshmay, obdan o'ylagin, do'stim — nasihat qildi sichqon.

— E-e, do'stim-ey, bu g'irt qo'rqqoqning gapi-ku. Sher va lil ham uyidan olis-olisga ketib qornini to'yg'azadi. Shuni ham bilmaysanmi? O'tkir tishlari, tirnog'i-yu dumiga ishonib arslon butun o'rmonni titratadi.

— Ha, bo'pti, bahslashmaylik. Donolar bii oyog'ini yerga bosmay turib, ikkinchisini yerdan uzmaydi. Xo'sh, ayt-chi, qayerga otlanyapsan o'zi? Yangi joyni so'rab-surishtirib, yaxshilab bilib olmay turib, yashab turgan joyni tark etmaslik kerak.

— Aziz do'stim, shuning uchun men ilgaridan bir joyni ko'z ostiga olib qo'yganman, — dedi qarg'a.

— Iye, shunaqami? Qayer ekan u? Bilsak bo'ladimi?

— Nega bo'lmas ekan? Do'stidan ham yashiradi deb o'ylovdingmi? Yo'q, bunaqa bo'lishi mumkin emas. Men aytay, sen quloq sol. Bu yerdan sal narida bir ko'l bor, shunaqangi chiroyliki, asti qo'yaver. Shu ko'lda mening bir toshbaqa do'stim yashaydi. O'zi nihoyatda to'g'ri va taqvodor, men unikiga borsam bo'ldi, bir zumda oldimga ovqatlarni qalashtirib tashlaydi. O'zi yemasa ham menga yediradi. U shunaqa do'st. Modomiki, yeb-ichish masalasi og'ir bo'lib qolgan ekan, bu yerda qolib nima qilaman?

Do'stining bu gaplarini eshitib, sichqon „bitta o'zim bu yerda qolib nima qildim“, deb o'ylab qoldi. Qaysi bir yurtda oziq-ovqat bo'lmasa, yor-do'st bo'lmasa, ilm-hikmat o'rganish imkoni bo'lmasa, unday joyning bahridan o'tgan ma'qul, xayolidan o'tkazdi sichqon. Oqillar aytganki, boy-badavlat, vedalarga ixlos qo'ygan pandit, xalqparvar raja, suvi musaffo daryo va bilimdon hakim- tabiblari bo'lmaganjoyda yashamagan ma'qul.

Quyidagi to'rtta narsa mavjud bo'lgan yerda yashash kerak — tirikchilik manbayi, qonundan hayiqish, sharm-u hayo, oqko'ngil kishilar va fidoyi do'stlar, lekin sudxo'r, hakim-tabib, toat-ibodat bilan mashg'ul bo'luvchi pandit va suv, ya'ni shu to'rt narsa bo'lmagan joyda yashamagan ma'qul. Shuning uchun bitta o'zim bu yerda qolib nima qildim, u bilan birga boraqolay, deb o'yladi sichqon.

Xo'sh, meni ham birga olib ketasanmi? — so'radi u.

— Iye, olib ketasanmi, deganing nimasi? — kuldi qarg'a. — Albatta olib ketaman-da. Do'stimning men bilan birga bo'lishi axir men uchun ulug' baxt-ku!

QARG'A, SICHQON VA TOSHBAQA

Qarg'a bilan sichqonni ko'rib, toshbaqaning sevinchi ichiga sig'may ketibdi. Darrov uyiga taklif qilib, sidqi- dildan ularning xizmatida bo'libdi.

Axir aytadilar-ku, mehmonning katta-kichigi bo'lmaydi deb. Xoh bola bo'lsin, xoh keksa, bundan qat'i nazar, mehmon xudoning bir ko'rinishi bo'ladi.

Bordi-yu yuqori toifaga mansub kishining uyiga past toifadagi odam mehmon bo'lib kelsa, u ham xuddi shunday izzat-ikromga loyiqdir. Mehmon har kimning ham uyiga kelavermaydi — baxtiyor kishilarnikiga keladi.

Qarg'a sichqonni toshbaqaga tanishtira turib dedi: — O'rtoqjon, gapimni eshit: mana shu mening eng qadrdon do'stimdir. Boshida mendan cho'chib, hadiksirab, do'st tutinishga unamay turgan edi. Qancha gapirdim, so'zladim. Oxiri to'g'riligimga ishondi. Shundan keyin do'stlashishga ko'ndi. Buyog'ini so'rasang, uchalamizning ichimizda eng aqllisi shu. Bizning do'stligimiz bundan faqat yutadi. Ana endi uchalamiz birga yashayveramiz.

Qarg'aning gapidan keyin toshbaqa sichqonni quchoqlab oldi. Uning yelkalarini silab turib dedi:

— Biz bilan do'st tutinib juda boplabsan. Bu do'stligimizni ham butun olam gapiradi.

— Rahmat, do'stim, sizlarga har qancha minnatdorchilik bildirsam oz. Sizlarning o'rtangizdagi mehr-muhabbatni ko'rib, kechmishim esimga tushib ketdi — dedi sichqon.

— Qanday kechmish ekan? Eshitsak bo'ladimi? — ikkovi baravar so'radi.

— Marhamat. Mana eshitinglar.

Shunday deb sichqon so'zlashga tushibdi.

IKKI SADHU

Uzoq bir yurtda bir sadhu yashardi. U kun bo'yi tilanchilik qilardi. Kechqurun shu yo'l bilan topgan ovqatini yeb, qornini to'yg'izardi-da, qolgan vaqtini toat-ibodat bilan o'tkazardi. Ovqatidan ortib qolsa, birlattaga o'rab, devordagi qoziqqa ilib qo'yardi.

Bir kuni uning uyiga qadrdon do'sti — boshqa bir sadhu tashrif buyuribdi. Ikkovi o'tirib, suhbat qurishibdi. Mehmon boshidan o'tgan sarguzashtlarini so'zlardi, mezbon esa hadeb hassasini yerga urib do'qillatardi.

O'rtog'ining bu qiligi mehmon sadhuning g'ashiga tegibdi.

He, oshna, bu nima qiliq? — zarda bilan so'radi u, — men sening do'sting bo'lsam, buning ustiga uyingda mehmonman. Men senga jon kuydirib gap gapiryapman-u, sen tayog'ingni do'qillatishdan bo'shamaysan. Axir shastrlarda aytilgan-ku mehmon do'st, oily janob kishilarning yuzida tabassum, nigohida mehr oqibat, so'zida bol bo'ladi, quchoq ochib ko'rishadi deb. Ko'zga qaramaslik, teskari qarab olish, har xil qiliqlar qilib o'tirish va nihoyat, suhbat mavzusini unutib qo'yish suhbatdoshning xayoli boshqa yoqdaligini bildiradi.

Uyning egasi dedi:

— Do'stini, sen mening mehmonimsan. Mening qilig'imni ma'zur tutasan. Qulog'im-ku senda, lekin ko'zim anavi sichqonda. Shunday deb u o'rtog'iga qoziq tomon ishora qildi. — Shu sichqon kecha-yu kunduz meni bezovta qiladi. Nuqul olib qo'ygan ovqatlarimni ilib ketadi. Sadhu shunday deb, do'stiga sichqon to'g'risida batafsil gapirib beribdi.

Mehmon do'stining hikoyasini eshitib bo'ldi-da, hayron bo'lib devordagi qoziqqa tikildi. „Bu sichqon shunday baland joyga qanday chiqarkin, shuncha kuchni qayerdan olarkin“, deb bosh qotira boshladi. Albatta, bu yerda bir sir bor, xayolidan o'tkazdi mehmon. O'ylay-o'ylay sichqonning bunday balandga iring'ishlashi mol- dunyosi tufayli bo'lsa kerak, degan fikrga keldi. Deydilarki, mol-davlatli odam qayerga borsa ham unga izzat- hurmat ko'rsatiladi. Rajaning kuch-qudrati ham uning boyligi tufaylidir. Mehmon shunday deb o'rnidan turdi-da, mening inimni kovlashga tushdi. U yog'i nima bo'lishi ayon edi: sadhu kovlay- kovlay mening xazinamga yetib keldi. Mening butun xazinamni olib chiqib ketdi, men esa alamimni ichimga yutib qolaverdim. Shunday qilib, bir umr yig'ib-terganimdan ayrildim. Shuvoqeadan keyin u yerdan ketdim, o'zimning tabaqamdagilarga kelib qo'shildim.

Do'stim, qashshoqlik alami o'lim azobidan ham battardir. O'lim vahimasi uch-to'rt lahzalik, xolos — o'tadi-ketadi. Ammo qashshoqlik azobi-chi? U odamni muttasil ezgani-ezgan.

Mana o'zingdanoq qiyos qilaylik. Puling ko'pligida qandoq yurarding kekkayib! Hamma nomingni hurmat-izzat bilan tilga olardi. Aqlingga hamma tasanno aytardi. Lekin qo'ldan pul ketgandan keyin kishilar xush ko'rmay qo'yadi, undan qochadi, hatto bunday odamni tentakka chiqarib qo'yadi.

Men bu ikkala sadhuning gapini eshitib, „Ha bo'пти, men uchun endi hayot tugabdi, ado bo'pman“, deb o'yladim. Endi qashshoqligimda na birov menga do'st bo'ladi-yu, na oshna, deb kuyindim.

Mening fikrimcha, xizmatkorning obro'si bo'lmaganidek, oyning yog'dusi zulmatni tilka-pora qilganidek va keksalik yoshlikni g'arq qilganidek, qashshoqlik ham kishidagi yuzlab fazilatlarni yakson qiladi.

Shunday ekan, birovning ovqatini yeb nima qilaman? O'zga- ning rizqiga ko'z olaytirgan odam do'zax azobini tortadi. Odamlar aytadiki, og'ir kasal, o'z yurtini tark etgan muhojir, birovning qo'lga qaram va birovnikida turadigan odam tirik murdalardir.

Shularning hammasini bila turib ham men qanday qilib sadhuning ovqatini qo'lga kiritsam ekan, deb o'ylagan edim. Ochko'zlik xuruj qilganda aql ham tob tashlaydi. Xuddi shu ochko'zlik mol-davlat hirsini avj oldiradi. Odamning boshiga tushadigan jamiki g'am-tashvishlar mana shu mol-dunyo hirsini tufaylidir.

O'sha kuni sadhu obdan ta'zirimni berdi. Holimda hol qolmadi. Horib-tolib, sekin uyga ravona bo'ldim. Yo'lda ketayotibmanu „E-e, odamzod o'zi o'tirgan qayiqni o'zi g'arq qilarkan-da“, deb o'ylab ketyapman. Mol-davlatga liirs qo'ygan, ochko'zlik balosiga muhtalo bo'lgan, qanoatsiz, his-tuyg'ularining quli bo'lgan kishining boshi tashvishdan chiqmaydi, deb odamlar haq gapni aytgan ekan. Aksincha, qanoatli odam hayotda hech bir kamchilik sezmaydi. Deydilarki, qanoat nomli obi-hayotdan bahramand bo'lgan odamning ko'ngli hamisha xotirjam bo'ladi, bunday odamning boshiga g'am tushsa ham, xuddi xursandchilikday qarshi oladi.

Qanoatsiz odam o'zini o'tga-cho'qqa urib yuraveradi, biroq qanoatli odam qo'lga tushib turgan naqd mol-dunyodan ham voz kechadi. Shuning uchun mening hozirgi ahvolimda biron-bir ish bilan mashg'ul bo'lganim ma'qul, deb o'yladim.

Mana shularning hammasini o'ylab, men u yerlardan bosh olib, shu yerga ko'chib keldim. Mol-holdan ayrilib, shipshiydam bo'lgach, tanish-bilishlarning nazaridan qolib yashaguncha, sher, yo'lbars, fillar yashaydigan o'rmonda meva-cheva, o't-maysalarni tamaddi qilib, quruq suv ichib, poxolda yotib yurgan ming marta yaxshi. Shu fikr ham meni u yerdan ko'chib ketishga undadi.

Mana endi manavi qarg'a bilan do'st tutinganimdan beri g'am- alamlarimni butunlay unutib yubordim. Bugun esa seni uchratga- nimdan g'oyat xursandman.

Do'stni, bir gap hamisha qulog'ingda bo'lsin — bu dunyo go'yo bir zaharli daraxt. Uning bor-yo'g'i ikki dona hayot baxsh shoxi bor: „biri she'r, shoirlik va qissago'ylik bo'lsa, ikkinchisi, shirin so'z, lazzati hamda yaxshilarga yondashishdir.

Dunyoda mana bu uch narsadan ortiq foydali yumush yo'qdir — yaxshi odamlar bilan muloqotda bo'lish, xudoga sajda qilish va muqaddas Ganganing suvida cho'milish.

Sichqonning gaplarini eshitib bo'lib, toshbaqa unga qarab dedi:

— Gaplarningning hammasi to'g'ri, do'stim, mol-davlat ko'chadagi chang-tuproqday bir gap. Yoshlik hayqirib oqadigan tog' daryosiga o'xshaydi, suvning yuzidagi ko'pikday bir lahzada yo'q bo'ladi-qo'yadi. Kimda-kim tiriklik chog'ida toat- ibodat kaliti bilan jannat qulfi ochishga harakat qilmas ekan, unday odam qariganda pushaymon yemay qolmaydi. Mana o'zingdan qiyos.

Topgan-tutganini to'plab tugib yotaverish xuddi mana shunga amal qilmaslikning oqibatidir. Bir gap doimo esingda bo'lsin: kimda-kim xasislik qilib mol-dunyosini tagiga bosib yotar ekan, bilginki, o'sha odam o'ziga-o'zi o'lim tilaydi. Bunday odamga jannatda o'rin yo'q, u to'ppa-to'g'ri do'zaxga tushadi.

Umrini faqat boylik to'plashga sarf qilgan odam, bir umr yuk tashib o'tgan eshakka o'xshaydi. Shunday odamlar borki, na birovga xayr-ehson qiladi, na o'zi yeb-ichadi, shu tariqa boylik to'playdi. Lekin hech narsaga ishlatilmaydigan, birovga bir pullik nafi tegmaydigan, bir uyum tuproqday bo'lib yotgan mol- dunyoning kimga keragi bor? Bunday boylikning boridan yo'g'i yaxshi. U yov bosganda ko'mak bermagan aslahaga o'xshaydi. Na yor-birolarlarning, na qarindosh-urug'ning kuniga yaramagan, na biron-bir xayrli ishga sarf qilinmagan bunday boylik yo kuyib kul bo'ladi yoki o'g'ri-qaroqchining qo'lga tushadi yoxud podsholikning o'zi yoq uni tortib oladi.

Shuning uchun ham oqillar aytganki, xayr-ehson qilishni kanda qilmaslik kerak, o'zgalarning manfaatiyo'lida sarf-xarajat qilib turish kerak, beva-bechoralarga yordam berish va shu tariqa nom qozonib, mol-dunyodan to'laligicha foydalanish lozim. Bir gal bir shaqal ahmoqlik qilib, kamalak zarbidan narigi dunyoga ravona bo'lgan ekan.

— Qanaqa shaqal? Nima ahmoqlik qilgan ekan? — so'radi sichqon bilan qarg'a baravar.

— Birodar, bu ancha uzun qissa, men hozir shu hikoyatni aytib berib, seni dahshatli zulmat va jaholat qo'ridan ozod etaman. Bu hikoyat faqat senga emas, balki ming-minglab senga o'xshak iularga ham to'g'ri yo'l ko'rsatsa ehtimol.

OCHKO'Z SHAQAL

O'rmon yaqinida bir ovchi istiqomat qilardi. Uyida yegulik hech narsa qolmaganligi uchun u o'rmonga ov qilish maqsadida yo'l oldi. Endi o'rmonga kirgan ham ediki bir kiyik ko'rinib qoldi. Ovchi fursatni qo'ldan hov bermay oq uzib kiyikni yiqitdi. Omadi kelib, kiyikday 'oljani qo'lga kiritganidan ovchi o'zida yo'q xursand edi.

Ovchi kiyikni yelkasiga ohb uyiga qarab kelayotganida nariroqda bir to'ng'izni ko'rib qoldi. Biqqa semiz to'ng'izga kozi tushdi-yu ochko'zligi tutib ketdi. Kiyik-ku endi o'zimning oljam deb xayolidan o'tkazdi u. Bunisi naqd. Kel endi shu to'ng'izni ham ovlab ola qolay. Shunday qilsam bir necha muddat gosht tashvishidan qutulaman. Uyimda go'shtim g'amlog'liq bo'ladi. Shularni o'ylab, ovchi yelkasidagi kiyikni yerga qo'ydi-da to'ngizga qarata o'q uzdi. Ovchi bir o'q bilanoq to'ng'izni yiqitaman deb o'ylagandi. Lekin undoq bo'lmadi. O'q tekkan to'ng'iz quturib ketdi va jon-jahdi bilan ovchiga tashlandi. U bir zumda ovchini tilka-pora qilib tashladi. To'ng'izni ov qilaman, deb xayol qilganicha oqibatda o'zi hayotdan ko'z yumdi

Birov tig'dan o'ladi, birov kasaldan va yana birov suvga cho'kib o'ladi. Xullas, o'limga bir narsa bahona bo'ladi intihosi o'limdir. Yaralangan to'ng'iz gursillab yiqildi. Ovchi ham to'ng'iz ham bir vaqtda, bir joyning o'zida jon berdi. Shu yerdan o'rimalab ketayotgan bir bechora ilon ham shularning tagida qolib bekordan bekorga nobud bo'ldi.

Shu topda bu yerga bir shaqal aylanib kelib qoldi. Qarasa roparasida bir emas, to'rtta o'lik yotibdi. Sevinchdan o'zini yo'qotib qo'yayozdi. - Eh-ha! Bugun rosa omadim keladigan kun ekanmi. Ert-matandan biron-bir oliyjanob odamga ko'zim tushgan bo'lsa kerakki, birvarakayiga to'rtta o'likning ustidan chiqib qolibman. Birvarakayiga bu qadar turli-tuman noz-ne'matni umrimda endi ko'rib turishim. Bir tomondan to'rtala jonotning o'limi qayg'uli edi lekin ikkmchi tomondan bu kutilmagan omaddan shaqal o'zida yo'q xursand edi. Xursandchilik va g'amning nomi dunyodir. Shaqal birpasda bu go'sht qanchaga yetarkan, deb hisob-kitob qilib chiqdi. Hisob-kitobdan ma'lum bo'ldiki, go'sht unga to'rt oyga bermalol yetarkan. Demak, shu to'rt oygacha ov qidirib izg'ish azobidan xalos bo'ladi, mazza qilib uyida yotaversa bo'ladi. Tirikchiligi o'tib turaveradi.

Taqdirning bu o'yiniga berilib ketgan shaqal endi ertangi kuni to'g'risida qayg'ura boshladi. Bugun birinchi kun bo'lsa, o'yladi u, shoshib nima qildim? Darrov semiz, totli go'shtlarni yemay- da, manavi kamon tortilgan qayishni chaynab qo'ya qolay.

Shunday deb ochko'z shaqal ovchining kamonida tortib qo'yilgan qayishga yopishdi. Qarabsizki, qayish uzilib, tarang tortilib turgan kamon yashin tezligida otilib, shaqalga tegdi. Shaqal til tortmay jon berdi-yu o'ligi haligi to'rtta o'likning yonidan joy oldi. To'rt oylik ovqatini hisob-kitob qilib turgan shaqal ochko'zligi tufayli oxir-oqibatda hamma narsadan mahrum bo'ldi, jonidan ham ayrildi.

Mana, ko'rdingizmi, do'stlarim, ochko'zlikning oqibati domi shunaqa voy bo'ladi. Mol-dunyo yig'ma demayman, yig'gin, lekin uni xayrli ishlarga sarfla, yeb-ich. Yeb-ichganing o'zingniki, qolgani bari bekor, o'zgalarga nasib qiladi. Men sizlarga aytсам, oqil odam hach qo'lga kirmagan narsadan umid qilib o'tirmaydi, qo'ldan ketgan narsaga achinmaydi. Boshiga og'ir kun tushganida o'zini yo'qotmaydi, hovliqmaydi. Shuning uchun, do'stlarmni, shod- xurramlik bilan yashashni o'rganinglar. Agar ilm-hikmat bobida mingta kitob o'qisang-u, undan hech vaqo o'rganmasang, ahmoqligingcha qolaverasan. O'qib-o'rgangan narsalaringa amal qiladigan kishi olimdir. Axir dori-darmonning nomini bilgan bilan kasal tuzalib qolmaydi-ku. Ko'rning qo'lga chiroq tutqazib qo'ygan bilan u ko'radigan bo'lib qolmaydi.

Sizlarga aytadigan gaplarim shu edi. Yana bir narsa do'stlarim! Istagim shuki, ikkovlaring men bilan birga yashanglar. Uchalamiz inoq do'st bo'lib, mana shu uyda turaveramiz. Bundan ortiq baxt bo'lishi mumkinmi jahonda! Do'stlar bilan vaqting shod-xurramlikda o'tadi, g'am-alam ham unut bo'ladi. Ulug'lar aytganki, qurbaqa suvga, qushlar shaffof suvli limmo-lim ko'lga intilgandek, mehnatsevar kishiga ham mol-dunyo o'z-o'zidan oqib kelaveradi.

Kimda-kim jasoratli, matonatli bo'lsa, mudom olg'a intilsa, tezkor, dovyurak bo'lsa, hech qachon noumid bo'lmasa, har qanday ishga jon-jahdi bilan, sidqidildan yondashsa, unday odam kam bo'lmaydi, uyidan baxt arimaydi.

Yana bir gap yodingizda bo'lsin:

— Tangri shundoq bir mo'jizalarni yaratib qo'yibdiki, aqling bovar qilmaydi. Oqqushni oppoq, to'tini yashil va tovuylarni kamalak rangida bezab qo'ygan. Dunyoda ne jonzot borki, hammasini o'ziga xos xususiyat bilan yaratib qo'yibdi. Shundoq ishlarga qodir tangri albatta sening qorningning ham g'amini yeydi.

Kimsa boylik topish uchun nimalar qilmaydi, turli-tuman firib, nayrang ishlatadi, vijdonini sotadi, gunoh ishlarga qo'l uradi. Xo'sh, shu yo'l bilan to'plangan boylik baxt keltiradimi? Mol-dunyo ne azoblar bilan topiladi, ne-ne qing'ir ishlarga qo'l uriladi, keyin uni asrash esa ulkan bir azobga aylanadi. Hali o'g'iri-qaroqchi urib ketishidan qo'rqadi, hali yo'qotib qo'yishdan xavfsiraydi, xullas mol-davlat egasining yuragini ming xil qo'rquv chulg'ab yotadi. Masalaning ikkinchi tomoni shuki, xo'p, mana shu ming gunohga qo'l urib yig'ilgan mol-davlatning kimga keragi bor. Bu axir gunohdan boshqa narsa emas-ku. Gunoh yo'l bilan topilgan davlat axir din uchun qora dog'-ku.

Ochko'zlik bir balodir. Uning hech cheki-chegarasi yo'q. U borgan sayin kuchayib boraveradi. Odam faqat o'ziga kerak narsani ko'ngli tusashi kerak. Mana, aytadigan gaplarim shu edi Mening istagim shuki, biz uchala do'st hech qachon bir-birimizdan ayrilmaylik, inoq bo'lib yuraylik.

- Do'stim toshbaqa! Sen nihoyat darajada oqko'ngil va donosan. Sening ilm-hikmatlaringni tinglab, ko'zimiz moshdek ochildi. Biz shu kungacha go'yo zulmatda yurgan ekanmiz turtinib-surtinib. Bizga to'g'ri yo'lni ko'rsatadigan do'stni mana endi topdik — dedi sichqon g'oyat mamnuniyat bilan.

Shundan keyin uchovlari birga yashay boshlashdi. Ular shod-xurram va osuda kun kechira boshlashdi.

YANA BIR YANGI DO'ST

Bir kuni sichqon, toshbaqa va qarg'a ko'l bo'yida suhbat qurib o'tirishardi. Shu payt qayoqdandir o'qday uchib halloslab kiyik kelib qoldi. Kiyikni ko'rib, sichqon qo'rqqanidan iniga urib ketdi, toshbaqa o'zini suvga tashladi, qarg'a esa qag'-qag'lab uchib daraxtga qo'ndi. Uning qag'-qag'iga bir gala qarg'a uchib keldi. Hoy birodar! - deya gap boshladi toshbaqa kiyikka qarab - ayt, nimadan bunchalik qo'rqyapsan? Qo'rqmay bemalol suvingni ich, keyin birpas hordiq chiqar. So'ng ketasan o'rmonga.

-Birodar, men bu yerga bir ovchidan qochib keldim Bu o'rmonda mening hech kimim yo'q, yor-u birodarim yo'q. Shuning uchun men bilan o'rtoq bo'lsang. Yolg'iz daraxt xunuk ko'rinar deyishgan ulug'lar.

Sichqon kiyikka qarab dedi:

Birodar, sen bilan shundoq ham do'st tutinib bo'ldim. Do'st to'rt xil bo'ladi: o'z farzanding, qarindosh-urug'ing, er tomondagi qarindoshlar va kulfat tushganda kunga yaraydigan.

Oldimizga kelgan ekansan, endi bizga do'st bo'ldim, deyaver.

Bu gaplar kiyikning cho'kkan ko'nglini ko'tardi, ko'ngli ancha taskin topdi. Qo'rquvi ham biroz kamaydi, bir daraxtning soyasida yotib dam ola boshladi. Qarg'a kiyikning oldiga keldi-da, so'z qotdi:

-Qani, rostini ayt-chi, o'rtoq, nimadan qo'rquvding? Bu o'rmonda ham ovchilar bormi?

-Ha, o'rtoq. Bu yerlarda ham ovchilar paydo bo'lib qoldi. Gap shundaki, shu kunlarda Magadhaning hukmdori Ganga daryosining qirg'og'iga kapa tikkan. Ular saharlab bu ko'lga keladi. Shuning uchun, menimcha, bu yerda qolish xatardan xoli emas.

-Agar gap shundoq bo'ladigan bo'lsa, — darhol gapga qo'shildi toshbaqa, — demak, bu yerda yashash xavfli ekan. Agar jonimiz omon qolsin desak, unda bu yerdan juftakni rostlab qolish lozim. Menimcha, tirik qolishning birdan-bir chorasi shudir.

-Ha-a, gaping to'g'ri, — dedi sichqon toshbaqaning gapini ma'qullab. — Bo'lmasa ovchilar bizni sog' qo'ymaydi. Lekin bir narsaga hech aqlim yetmayapti...

-Nima ekan u? — so'radi toshbaqa hayron bo'lib turgan sichqonga tikilib.

-Birodar, mana sen-ku biron-bir ko'lga borib, o'sha yerda yashayvemsan. Qarg'a ham biron daraxtga oshyon qurib oladi. Lekin qiyin bo'lganda menga qiyin. Men in yasamasam iloji yo'q, bunga esa vaqt ketadi, chunki suv jonivorining uyi suvdir, lashkarning ishongani qal'a, podshoning ishongani esa lashkar, degan gap bor.

-Endi bir yo'lini qilmasak bo'lmaydi. Ulug'lar aytganki, har narsani chuqur o'ylash darkor, har ofatning chorasi va har g'amning nihoyasi bordir. Lekin buning uchun biroz aqlni ishlatish kerak. Aqli borning hamma narsasi bor deyaver. Xuddi shu aql kuchi bilan ayyor shaqal bahaybat filni botqoqqa botirib, o'ltirgan ekan.

-Nima deding? Shaqal filni o'ldiribdi, deysanmi? — hammalari anqaygancha sichqonga qarab qolishdi.

-Ha, mana eshitinglar. Men hozir sizlarga o'sha shaqalli iqlilagi hikoyatni aytib beraman.

SHAQALNING UDDABURONLIGI

Bir qalin o'rmonda bir bahaybat fil yashardi. Uning dastidan hayvonlarga kun yo'q edi. Jamiki hayvonlar shu film desa zir-zir titrardi. Hammasi fildan juda zada bo'lgan, qachon fil o'larkan-u, undan qutularkanmiz, deb yurardi. Shaqallar to'dasining yetakchisi ham filni yo'q qilish haqida bosh qotira boshladi.

U bir kuni hamma shaqallarni bir joyga yig'di-da, ularga dedi:

-Gap bunday, birodarlarim! Shu fil omon ekan, bizga tinchlik yo'q — na bemalol yura olamiz va na ov qila olamiz. Men ichlaringizda eng keksaman, buning ustiga sardoringiz hamman. Chunonchi, men aqlimni ishga solib, shu filni bir yoqlik qilmay qo'ymayman.

-Juda to'g'ri aytdingiz! To'g'ri, taqsir! Mana biz sizning ixtiyoringizdamiz, — deyishdi shaqallar baravariga.

Shunday qilib, keksa shaqal ishga kirishdi. Ertasi kuni u filining oldiga borib, chuqur ta'zim qildi-da, Jaqsir, mendan rahm- shafqatingizni ayamasangiz", dedi.

-Sen kimsan o'zing? — so'radi dag'dag'a qilib fil. — Qayoqdan kelding? Menda nima ishing bor?

-Taqsir, men bechora bir shaqalman. O'rmondagi hayvonlar bir bo'lib, meni sizning huzuringizga yuborishdi.

-Nega yuborishdi? — do'q bilan so'radi fil.

-Taqsir, hayvonlar bir masala xususida yig'in chaqirishdi. Ular aytdiki, bizning rajamiz yo'q, raja bo'lmasa, davlat ishlarini yuritib bo'ladimi, deyishdi. Butun o'rmonda kuch-qudrat bobida siz o'zingiz yakka-yu tanhosiz. Shuning uchun bir ovozdan sizni raja etib tayinlashga qaror qilindi.

Fil, raja bo'lasan, degan gapni eshitib, o'zini yo'qotib qo'ydi, boshi aylanib ko'zi ko'r bo'ldi-qoldi. Shaqalning ketidan yo'lga tushdi. Fil ketyapti-yu, o'zida yo'q xursand, shaqaldan ham ich-ichidan minnatdor edi. Chunki shuda uni raja bo'lishga undagan.

Shaqal filni to'ppa-to'g'ri chuqur bir botqoqlikka boshlab bordi. Fil qanday qilib botqoqlikka kirganini va botib qolganini bilmay ham qoldi. Botqoqdan chiqishga yuz urindi, ming urindi, biroq foydasi bo'lmadi. Shaqal esa narida turib olib hadeb kular va derdi:

- Ha, qalay, birodar! Ana raja bo'lding! O'rmondagi hayvonlarga o'lkazmagan zulming qolmadi. Mana endi o'sha gunohlaringni jazosini tort. Gunohkor axir bir kun o'z oyog'idan yiqiladi. Senday qonxo'r filni botqoqqa botirgan narsa sening ochko'zliging va mening aqlim bo'ladi. Shunday qilib, qonxo'r fil botqoqqa botib o'lgan ekan.

Shahzodalar bu hikoyatni eshitib, dedilar:

-Maharaj! Sizning bu qissa-hikoyatlaringizni biz nihoyatda zo'r maroq bilan tingladik, ulardan talay narsani o'rgandik. Lekin xuddi shunaqa ilm-hikmat to'la, maroqli va qiziq hikoyatlardan yana eshitsak, degan istagimiz bor edi.

Pandit kulimsiradi-da, shahzodalarga qarab, bunday dedi:

— Aziz shahzodalarim! Buhikoyatlar faqatgina sizlar uchun foydali emas. Bularni o'qigan, eshitgan har kimsa naf ko'radi, bilimi ortadi. Bu ilm-hikmat shunday kuchli qurolki, uni egallagan kimsa hech qachon hayotda yanglishmaydi. Tangri Shivaga ishongan kimsagina haqiqiy insondir. Tangri esa o'z bandalarini doimo xushnud qiladi.